

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

Narbaeva Sevara Raimbergenovnaning

5810100 – Turizm (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha
(shifri va ta'lim yo'nalishi nomi)

bakalavr darajasini olish uchun

***BITIRUV MALAKAVIY
ISHI***

Mavzu: Ekskursion ximat turlari va ularni tashkil qilish

Ilmiy rahbar:

Bekjanov Dilmurad

Urganch 2013 yil

1-ilova. Bitiruv malakaviy ishining titul varag`i

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

Turizm kafedrası

Ekskursion ximat turlari va ularni tashkil qilish

Bajaruvchi: Narbaeva Sevara
Rahbar: Bekjanov Dilmurad

Urganch shahri
2013-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

Turizm kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO`YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

1. Talaba Narbaeva Sevara Raimberganovna universitet rektorining «_____»-sonli _____ buyrug`i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun “Ekskursion ximat turlari va ularni tashkil qilish” mavzusi tasdiqlangan.
2. Kafedra majlisining qaroriga binoan Bekjanov Dilmurad bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.
3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: Bitiruv malakaviy ishi asosan kirish, 2 ta bob 6 ta paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovalardan iborat.
4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar asosan “O‘zbektuzim‘ Milliy Kompaniyasi, mintaqaviy va xalqaro statistik ma'lumotlaridan olingan. Bundan tashqari shu sohadagi O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlardan, hamda eng yaxshi xorijiy, shu jumladan mamlakatimiz olimlari tomonidan chop qilingan adabiyotlardan bevosita foydalanilgan..
5. Bitiruv malakaviy ishga turizm sohasini rivojlanishiga oid statistik ma'lumotlar va boshqa rasmlar ilova qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>№</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
1.	BMI mavzusi va ob'ektini tanlash	05/09/2012
2.	Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni to'plash	15/11/2012
3.	O'quv-uslubiy manbalarni o'rganish	22/11/2012
4.	BMI rejasini tuzish	29/11/2012
5.	1-bobni tayyorlash	06/12/2012
6.	2-bobni tayyorlash	20/12/2012
7.	Korporativ hamkorlik ob'ektida muhokama qilish	04/02/2013
8.	Xulosa va takliflar qismini tayyorlash	25/02/2013
9.	BMI taqdimotini tayyorlash	14/03/2013
10.	Dastlabki himoyaga tayyorgarlik	25/03/2013

Bitiruv malakaviy ish rahbari: o'qt. Bekjanov Dilmurad

Bajaruvchi talaba: Narbaeva Sevara

2013 yil «__» _____

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2012 yil «__» _____
tasdiqlandi («__»- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: dots. A. Sadullayev _____

(imzo)

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO`YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba: Narbaeva Sevara Raimbergenovna

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: “Ekskursion ximat turlari va ularni tashkil qilish”

Bitiruv malakaviy ish xajmi: 86 bet

Tushuntirish qismi: Bitiruv malakaviy ishning tushuntirish qismida dastlab kirish qismi berilgan. Keyin 2 ta bob, 6 ta paragrafdan iborat asosiy qismda mavzuning mohiyati ochib berilib, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ishning tushuntirish qismi mavzu bo`yicha xulosa va takliflar bilan yakunlangan.

Mavzuning dolzarbligi: O`zbekistonda turizmida ekskursiya xizmati ko`rsatish, ekskursiyani tashkil kilish bu sohada erishgan yutuqlar, sohaning ijtimoiy-iqtisodiy ko`rsatkichlari ilmiy tadkikotlar, maxsus adabiyotlarda juda kam o`rganilgan va umuman, bu masalaga yaxshi e`tibor berilmagan. Lekin xorijlik etakchi olimlar bu masalaga o`z e`tiborlarini karatgan. Masalan, Donald Landberg, M. Kchishnallor, Mayk Stavenga, R.M.Blomstor, R.Olge, Nikolss, kabi dunyoning etakchi olimlari o`zlarining ilmiy-amaliy ishlarini bag`ishlaganlar va ilmiy xulosalari bilan sohaning rivojlanishiga hissalarini qo`shishgan. Hamdo`stlik mamlakatlari olimlaridan V.I.Azar, V.Kistanov, A.Yu.Aleksandrova, N.S.Bargukov, R.A.Braymer, A.G.Grabar, N.Igorova, I.T.Balabanov va yana boshqa ko`plab iktisodchi olimlarning shu sohaga taallukli ilmiy-amaliy izlanishlari mavjud. Bu mualliflarning ilmiy-amaliy ishlari turli vaktlarda yozilgan bulib, ularda turizmida ekskursiya xizmatini takomillashtirish, ekskursantlarni boshqarish, tashkillashtirish kabi muxim yunalishlarni nazariy va amaliy nuktai nazardan yoritib berishga xarakat

kilingan.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi: Narbaeva Sevara asosan umiversitetda o‘qish davrida turizm sohasi bo‘yicha umumkasbiy fanlardan a‘lo darajada bilim olgan. Shu sababli u bitiruv malakaviy ishida ko‘p qirrali nazariy ma‘lumotlar, hozirgi paytdagi turizm sohasi bo‘yicha dunyoda keng qo‘llanilayotgan adabiyotlardan foydalangan.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari: Talaba bitiruv malakaviy ishini yozish paytida o‘zining shu soha bo‘yicha a‘lo darajada bilimli ekanligi, ilmiy va statistik ma‘lumotlarni mustaqil tahlil qila olish qobiliyati, intiluvchanligi bilan boshqalardan ajralib turdi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari asosan ekskursiya xizmatlarini nazariy jihatdan keng yoritilganligi, keng miqyosdagi nazariy va uslubiy ko‘rsatmalardan, statistik ma‘lumotlardan foydalanilganligi ishning yanada samarali amalga oshirilganligidan dalolat beradi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari: Bitiruv malakaviy ishi asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirli, davlat attestasiya komissiyasi tomonidan qo‘yilgan barcha talablarga mos va himoya qilsihga tayyor hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishga qo‘yilgan talablarning bajarilishi darajasi: Bitiruv malakaviy ishiga qo‘yilgan talabalar to‘liq bajarilgan.

Bitiruv malakaviy ish rahbari: Bekjanov Dilmurad Yo‘ldashovich
(f.i.sh.)

2013 yil «___» _____

**Urganch davlat universiteti
Iqtisodiyot fakulteti**

5810100 - “Turizm (Faoliyat turlari bo’yicha)” ta’lim yo’nalishi

**Narbaeva Sevara Raimbergenovnaning
bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: “Ekskursion ximat turlari va ularni tashkil qilish”

Malakaviy ishning hajmi 15982 soʻzdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 86 sahifadan iborat;

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi: Barchamizga ma’lumki, Xorazm viloyati mamlakatimizning eng asosiy turistik markazlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mintaqa boy tarixiy va madaniy merosga ega. Bugungi kunda, Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish orqali yangi ishchi oʻrinlarni ochish, soha infratuzilmalari takomillashtirish orqali mintaqaga kelayotgan xorijiy sayyohlar oqimini koʻpaytirish, turistik eksport salohiyatini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 20 martdagi PK-1940 sonli «2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish Dastur»ining qabul qilinishi buning yaqqol isbotidir. Ushbu muammolarning ilmiy-nazariy va amaliy yechimlarini topish oʻz navbatida, tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi dolzarb va berilgan topshiriqqa toʻla mosdir.

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning maqsadi, vazifalari, ob’ekti, predmeti, metodlari, natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati hamda joriy qilinishi yoritilgan. Ishda belgilangan vazifalar toʻliq bajarilgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovasiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi: Ishlab chiqarish bilan innovasion korporativ hamkorlikni amalga oshirish borasida “Turizm” kafedrasida qoshida tuzilgan innovasion guruhlarida kafedra ixtisoslashuviga mos zamonaviy korxonalar ilmiy-texnologik muammolarini o`rganish bo`yicha rejalashtirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi: Bitiruv malakaviy ishi UrDU “Turizm” kafedrasida majlisida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan (201__ yil “__” _____dagi __-sonli bayonnoma).

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari: Bitiruv malakaviy ishi natijalarida olingan ilmiy tavsiyalar va amaliy natijalar “O`zbekturizm” MK Xorazm viloyati minatqaviy bo`limi faoliyatida tomonidan amaliyotga tadbiq etish uchun qabul qilingan.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar: Bitiruv malakaviy ish ayrim juz’iy kamchiliklardan ham xoli emas, ammo, ushbu kamchiliklar bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini, nazariy ahamiyati va ilmiy saviyasini aslo pasaytirmaydi.

Taqrizchi: _____ dots. Xudoyberjanov D. T

2013 yil «__» _____

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo`limlar	Eng yuqori ko`rsatkich ball hisobida
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo`yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma`ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e`tiborga olingan holda baholash mezonlariga o`zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

yo`nalishining bitiruvchisi _____ ning _____

mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAKning 2013 yil «__» _____ dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o`zlashtirish ko`rsatkichlarini belgilaydi

№	Baholanadigan bo`limlar	Eng yuqori ko`rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo`yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma`ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
Jami:			

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. _____

mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o`zlashtirish ko`rsatkichi belgilanish va «_____» deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A`zolari: _____

2013 yil «__» _____

Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot 7-ilova
_____ kafedrası fakulteti

Bitiruv malakaviy ish _____-sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi

Ilmiy rahbar (maslahatchi)ning ismi-sharifi

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2013 yil «__» _____ da o`tkazilgan
majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib

tayinlandi.

Kafedra _____ mudiri:

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo`yicha
tavsiyasiga roziman.

Fakultet _____ dekani:

Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti _____
kafedrası _____ bakalavr ta'lim
yo`nalishi _____

«Tasdiqlayman»
Fakultet dekani

«__» _____ 2013
y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO`YICHA TOPSHIRIQ

Talaba _____
1. _____ Ishning _____ mavzusi:

«__» _____ 2013 yil universitet rektorining «__»-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: «__» _____ 2013 y.

3. Mavzu bo`yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro`yxati

- a) Amriddinova. Ekskursiya ishini tashkil etish.SamISI. 2009
- b) Dovjenko G. "Ekskursionnoye delo" Moskva 2006g
- c) Li D. M, Talipov M.A teksti lektsi po predmetu "Ekskursovedeniye". Toshkent 2003g. Tashkentski Gosudartstvenniy universitet.
- d) Tariqulov M. O, Nabiyeva S. A "Ekskursiyashunoslik" fani bo'yicha ta'lim texnalaogiyasi. Toshkent 2006 y. Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti.
- e) Nazarova K., Kamilova F. O'zbekistonda turizm imkoniyatlarini kengaytirish. // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, №9, 2000. - 48-49 b.

f) Pardaev M.Q., Atabaev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. Ma'ruzalar kursi. - SamISI, 2006.

g) Soliev A.S., Usmonov M.R. Turizm geografiyasi. -Samarqand: SamDU, 2005. -131 b.

4. Ishning maqsadi: O`zbekistonda turistlarga ekskursiya xizmati ko`rsatishni xalqaro standartlar darajasiga chiqarish va turizm rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqish, boshqarish va rivojlanishini tug`ri yo`naltirish uchun xorij tajribasini o`rganish va uni amaliyotga tadbiq etish, turizmni rivojlantirishning maqsadli strategiyasini shakllantirish kabi muammolar xam tahlil qilingan.

5. Chizma materiallar ro`yxati:

6. Ilmiy rahbar: Bekjanov Dilmurad Yo`ldashovich _____
(imzo)

BMI bajaruvchi talaba: Narbaeva Sevara Raimbergenovna _____
(F.I.SH.) (imzo)

Kafedra mudiri: dots. Sadullayev Aminboy Sadullayevich _____
(F.I.SH.) (imzo)

MAVZU: EKSKURSION XIZMAT TURLARI VA ULARNI TASHKIL QILISH

REJA:

Kirish

I-BOB. Ekskursiya xizmatlarini tashkil qilishning nazariy metodlogik asoslari.

- 1.1. Ekskursiya xizmatlarining mohiyati va ularning turlari
- 1.2. Ekskursiya xizmatlarini tashkil qilishning o'ziga xususiyatlari
- 1.3. O'zbekistonda ekskursiya xizmatlarini tashkil qilishning tashkiliy-huquqiy asoslari

I-BOB. Xorazm viloyatida ekskursiya xizmatlarini tashkil qilishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari.

- 2.1. O'zbekiston Respublikasida ekskursiya xizmatlarini tashkil qilishda turistik resurslarni tutgan o'rni.
- 2.2. Xorazm viloyatida ekskursiya xizmatlarini tashkil qilishda turizm infratuzimasining rivojlanishi ta'sirini baholash.
- 2.3. Xorazm viloyatida ekskursiya xizmatlarini tashkil qilish samaradorligini oshirish.

Xulosa va takliflari

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Respublika iqtisodiyoti barqaror rivojlanishi uchun iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida iqtisodiy islohotlarni jadal sur'atlar bilan amalga oshirish juda xam zarurdir. Iqtisodiy islohotlar mamlakatning o'zidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarnigina emas, balki xalkaro munosabatlar sohasidagi faoliyatni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni takomillashtirish, kengaytirish va ishlab chiqarishni jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasining nazariy-amaliy yutuqlari bilan boyitish kabi vazifalarni ham bajarishga qaratilgan bo'lishi lozim. O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab, iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida, shu jumladan turizm sohasida ham jahon andozalariga mos holda xo'jalik yuritishning yangi shakllariga o'tilmoqda.

Respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirish jarayonida xizmat ko'rsatish sohasiga (turizmga) bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Insonning dunyoni, o'lkani bilish, sog'liqni tiklash, bo'sh vaqtini samarali o'tkazish, dam olish, zavqlanish kabi eng muhim extiyojlarini qondirishga zaruriyat sezilmoqda. Kishilarning ma'naviy dunyosini boyitishda o'zining madaniyati, urf-odati va turmush tarzini bilish bilan birga boshqa xalqlar, millatlarning ham ana shu ulug' qadriyatlarini bilishga bo'lgan talab yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Tashqi va ichki turizm ayrim mamlakatlarda juda ham tez, barqaror rivojlanib bormoqda. Albatta, bular tarmoqning qanchalik darajada mamlakat iqtisodiyotida hal qiluvchi ahamiyatga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

Xalqaro turizmda bugungi kunda ekskursiyaning ahamiyati ortib borayotgan bo'lib, ayniqsa, bizning respublikamizga tashrif buyurgan aksariyat turistlarning e'tibori qadimiy tarixiy aritekturaga va o'zbek xalqining boy merosi hisoblangan urf-odatlariga qaratilgan. Xorijlik turistlarga ekskursiya xizmati ko'rsatishda, albatta, bu jihatlarni nazardan chetdan qoldirmaslik lozim. Turistlarga ekskursiya xizmati ko'rsatish va uni takomillashtirishda bajarilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolar ko'pdir.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish, uning ne'matlaridan baxramand bo'lish hozirgi kunning eng muxim vazifalari qatoridan joy olmoqda. Mazkur muammolarni o'rganish, ularni ilmiy tahlil qilish, bu borada to'plangan bilim va tajribalar asosida mavjud muammolarni hal qilishga doir takliflar kiritish bitiruv malakaviy ishi uchun tanlangan mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda turizmida ekskursiya xizmati ko'rsatish, ekskursiyani tashkil qilish bu sohada erishgan yutuqlar, sohaning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari ilmiy tadqiqotlar, maxsus adabiyotlarda juda kam o'rganilgan va umuman, bu masalaga yaxshi e'tibor berilmagan. Lekin xorijlik etakchi olimlar bu masalaga o'z e'tiborlarini karatgan. Masalan, Donald Landberg, M. Kchishnallor, Mayk Stavenga, R.M.Blomstor, R.Olge, Nikolss, kabi dunyoning etakchi olimlari o'zlarining ilmiy-amaliy ishlarini bag'ishlaganlar va ilmiy xulosalari bilan sohaning rivojlanishiga hissalarini qo'shishgan. Hamdo'stlik mamlakatlari olimlaridan V.I.Azar, V.Kistanov, A.Yu.Aleksandrova, N.S.Bargukov, R.A.Braymer, A.G.Grabar, N.Igorova, I.T.Balabanov va yana boshqa ko'plab iqtisodchi olimlarning shu sohaga taallukli ilmiy-amaliy izlanishlari mavjud. Bu mualliflarning ilmiy-amaliy ishlari turli vaktlarda yozilgan bulib, ularda turizmida ekskursiya xizmatini takomillashtirish, ekskursantlarni boshqarish, tashkillashtirish kabi muxim yunalishlarni nazariy va amaliy nuqtai nazardan yoritib berishga xarakter kilingan.

O'zbekiston iqtisodiyotida turizmning tutgan o'rni, iqtisodiy rivojlanishda turizmning ta'siri, tashkiliy iqtisodiy muammolarining ma'lum bir qismi respublikamizning A.F.Saidov, G.G.Nazarova, T.T.Tashmurotov, A.Razzokov, N.Tuxliev, B.Xusanboev, A.Taksanov kabi bir qancha iqtisodchi olimlari, amaliyotchilari tomonidan o'rganilgan. Lekin turizmida ekskursiya xizmatlarini takomillashtirish, xususan, turizmida ekskursiyani tashkil qilishga bag'ishlangan izlanishlar respublikamizda endi o'rganilayotgan yangi tarmoqdir. Shuning uchun xam turizmida ekskursiyaning rolini oshirish, tashkil qilishning Yangi yo'llarini ishlab chiqish va turizm tizimi respublikamizda rivojlanishi,

shakllanib borishini o`rganish, tahlil qilish, izlanish olib borish va ijobiy yutuklarni turizmga moslashtirish, turizm korxonalariga, turfirmalariga, xususiy sektorlarga, turizm bilan shug`ullanuvchi tashkilotlarga tadbiq etishni taqozo etadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Mazkur ishining maqsadi O`zbekistonda turistlarga ekskursiya xizmati ko`rsatishni xalqaro standartlar darajasiga chiqarish va turizm rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqish, boshqarish va rivojlanishini tug`ri yo`naltirish uchun xorij tajribasini o`rganish va uni amaliyotga tadbiq etish, turizmni rivojlantirishning maqsadli strategiyasini shakllantirish kabi muammolar xam tahlil qilingan.

Qo`yilgan maqsadga muvofiq holda bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalarni hal qilish ko`zda tutilgan:

- Turistlarga O`zbekistondagi tarixiy shaxarlar buylab ekskursiyani tashkil kilish asoslarini ishlab chikish;
- Qadimiy Samarkand va Buxoro shaharlari buyuk tarixiy-madaniy an`analarining O`zbekiston turizmidagi tutgan o`rnini aniqlash;
- Xorazm viloyati turizmi va madaniyatining rivojlanishini tahlil qilish
- O`zbekiston xalqaro turizmida ekskursiya xizmati ko`rsatishni rivojlantirish yo`nalishlarini aniqlash;
- Ekskursiyani tashkil etishda madaniy meros etnografiya, urf-odatlar va an`analardan unumli foydalanish yo`llarini ko`rsatish;
- Turizmda ekskursantlarni arxitektura va xaykaltaroshlik bilan tanishtirishning samarali yo`llarini tadbiq etishdir.

Bitiruv malakaivy ishining nazariy va amaliy uslubiy asosini jahon, hamdo`stlik mamlakatlari hamda respublikamiz iqtisodchi olimlarining o`rganilayotgan muammolarga doir asarlari, bozor iqtisodiyotiga o`tishning hozirgi zamon yo`nalishiga oid ilmiy izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan me`yoriy xujjatlar, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasining Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O`zbekiston

Respublikasi Prezidentining «Buyuk Ipak Yulini tiklashda va xalkaro turizmni rivojlantirishda O`zbekistonning ishtirokini kuchaytirish chora-tadbirlari» to`g`risidagi farmoni, bir qancha qonunlar tashkil qiladi.

Izlanish olib borish jarayonida iqtisodiy nazariya, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, xalqaro turizm, turizm iqtisodi va biznesi, turistik xizmatlar, turmaxsulotlar bozori, tarmoqning rivojlanishi uchun chop etilgan boshka iqtisodiy adabiyotlar batafsil o`rganildi.

Bitiruv malakaviy ishining uslubiy asosini amaliy materiallarni o`rganish, Butunjaxon Turizm Tashkiloti (BTT), Rivojlangan davlatlar turizmi statistik materiallari, «O`zbekturizm» MK, «Iqtisodiyot» vazirligi va «Statistika» boshqarmasining statistik materiallari tashkil etadi.

Muallif tomonidan to`plangan materiallar izlanishning asosiy bazasi hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida taqqoslash, tarkibiy, funktsional tahlil usullari, shuningdek statistik guruxlash, analitik, iqtisodiy-matematik, chiziqli, eksperimental, mantiqiy tahlillardan keng foydalanildi. Shuningdek, izlanish jarayonida o`rganilayotgan muammolarni tahlil qilishda tenglik, sub`ektiv-ob`ektiv kategoriyali uslublar qo`llanildi. Muallif kontseptual g`oyalarni ishlab chiqish va asoslashda o`rganilayotgan muammoga tizimli yondashish talablaridan kelib chiqqan holda qaradi.

I-BOB. Ekskursiya xizmatlarini tashkil qilishning nazariy-uslubiy asoslari.

1.1. Ekskursiya xizmatlaring mohiyati va ularning turlari

Turizm ekskursiya bilan chambarchas bolidir. Chunki ekskursiya har bir turistik sayohatning fikriy ifodasidir. Odatda, ekskursiya deganimizda diqqatga sazovar joylarni ziyorat qilish tushiniladi, bularga esa, yodgorliklar, muzeylar, muassasalar va boshqalarni o`rganish shakl va usullari deb bilamiz.

Ekskursiya xizmatini ko`rsatish – insonning ma`naviy va axloqiy qadriyatlarga bo`lgan ehtiyoji va talabini qondirish, bilimni egallashda , shu jumladan, kasbiy va bilish vositalari, usullari, obyektlarini erkin tanlash sharoitida ekskursiyalar tashkil etish va ekskursiya xizmatlarini ko`rsatishdir. Ekskursiya xizmatlarini ko`rsatish iste`molchi (ekskursant,turist) gacha tarix, madaniyat, geografiya, etnografiya, ekologiya va iqtisodiy hamda boshqa fanlar bo`yicha kompleks bilimlarni yetkazish imkonini berdi. Bu muzeylarni va ko`rgazma eksponatlarini, tarixiy, madaniy, tabiiy, etnojadal, muhandislik va boshqa diqqatga sazovor joylarni, obyektlarni anglashda shaxs ehtiyojini qondiradi.

Inson tomonidan ekskursiya xizmatlarini tanlash topqirligi va bilimdonlik xarakteriga ega. Chunki, ekskursant (turist) bir vaqtning o`zida bir necha ehtiyojlarini qondiradigan ekskursiya xizmatlarini tanlaydi, ya`ni bu xizmatlar funksional to`liqlikka ega bo`ladi. Misol uchun, shaxardan tashqariga ekskursiyaga tashrif buyurishar ekan, uning ishtirokchilari nafaqat bilimga ehtiyojlarni qondiradi, balki hissiyot va intellektual zo`riqishlarni harakatlanishi orqali bartaraf qilishadi va bir- birlari bilan muloqat jarayonida axborot almashinish samaradorligini oshiradilar. Shunday qilib, ekskursiya xizmatlari ko`rsatilishini nafaq turistik xizmatlar kompleksining qismi sifatida, ekskursantlar (turistlar) ni talab va ehtiyojlarni qondirish maqsadi bo`lgan mustaqil xizmat turi sifatida qarab chiqish mumkin.

Ekskursiya - (lotinchadan. *Exscursio* – sayoxat) bu gid (ekskursovod) rahbarligida ilmiy yoki madaniy maqsadlarga diqqatga sazovor joylarni, muzeylarni individual yoki jamoa bo‘lib tomosha qilishdir.

Yoki boshqacha ta’riflaganda:

Ekskursiya - bu tanishish yoki o‘rganish maqsadida aniq belgilangan reja bo‘yicha o‘tkaziladigan, mavzuli hikoyalar bilan olib boriladigan biror ob’ektni ko‘rsatish jarayonidir. Har bir ekskursiyaning mazmuni (xususiyati) *hikoya qilish, namoyish etish, ma’lumot berishdan* iborat. Agar namoyish etish(tanishtirish) bo‘lmasa bunday madaniy, ilmiy jarayon ekskursiya emas, balki oddiy *ma’ruza* yoki *suhbatga* hisoblanadi.

Ekskursiya xizmatlarini turistik ekskursiya korxonalarining uyushtirilgan dam olish tizimi faoliyat natijasi sifatida qarab chiqib, shuni unutmaslik kerakki, ekskursiya xizmatlari ko‘rsatish kompleks vazifalari tarixiy, madaniy, tabiiy va boshqa obyektlarga sayohat va safarlar uyushtirishni o‘z ichiga oladi.

Ekskursantlarning ehtiyojlarini qondirish bevosita ekskursiya xizmatlarini miqdoriy va sifatiy yaxlitligiga bog‘liqdir.

Ekskursiya xizmatlarini tashkil etishning har bir formasi(shakli) bu aniq maqsadga qaratilgan harakatlar uyg‘unligi hisoblanadi. Ekskursiya xizmatlari ko‘rsatish ekskursantlarning talab va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Aholini ekskursiya xizmatlari bilan qamrab olishning maqsadli yo‘nalish xarakteri quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amlaga oshiriladi.

- Yashash joyi;
- O‘quv muassasi, tashkilot, korxonalar;
- Tur bazalar, dam olish uylari, pensionatlar va hakazolar;
- Klublar, madaniyat uylari va saroylari;
- Seminarlar, kurslar, simpoziumlar, konferensiyalar va boshqalar;
- Aeroportlar (portlar), vokzallar, festival maydonlari.

Ekskursiya xizmatlari barcha ishlarni tashkil etish bo‘yicha asos korxonaning biznes rejasi bo‘lishi mumkin. Bu turizm soxasi bozorida ekskursiya xizmatlari

turlari bo'yicha talab va ehtiyojlar, ishtirokchilar tarkibi hisobga olingan holda tuziladi. Unda ekskursiya xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari aks etadi va quyidagilar kiradi:

- Aholiga, mamlakat mehmonlariga ko'rsatiladigan ekskursiya xizmatlari hajmi(pul o'rinishida);
- Ekskursantlar(turistlar) soni;
- Xizmatlardan tushgan daromad.

Mazkur ko'rsatkichlar dahoviy takomillashtirish mezonini sifatida xizmat qiladi. Buning uchun korxonada quyidagi axborotlar bo'lishi maqsadga muvofiq.

- Ekskursantlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq tashkilotlar manzili, faks va telefon raqamlari;
- Ekskursiya mavzulari ro'yxati;
- Ma'lum mamlakat, hudud, rayon, shahar bo'yicha joy ekskursiya yo'nalishlari, karta sxemalari;
- Ekskursavodlarning uy manzillari va telefonlari raqamlari ro'yxati.

Ekskursiya xizmatlari ko'rsatkichni tashkil etish bo'yicha axborotlar to'liqligi turli ko'rinishdagi kartochkalar bilan taminlanadi:

- Transport korxonalarini(avto xo'jaliklar, avto stansiyalar, temir yo'l vokzallari, aeroportlar, portlar va hakazolar);
- Joylashtirish vositalari;
- Ovqatlanish korxonalarini.
- Ekskursiya tashkilotlari tomonidan tashrif buyurish ko'zda tutilgan;
- Madaniy akartiv muassasalari(muzeylar, konsert zalari, teatrlar va boshqalar);
- Tashrif buyuriladigan va ko'rsatilayotgan hisoblangan korxonalar;
- Ekskursiyalar o'tkaziladigan mavzular ro'yxatiga muvofiq ularning klassifikatsiyasi, davomiyligi, harakatlanish usuli, boshlanish joyi va tugashi, ekskursiya qiymati ko'rsatiladi.

Ekskursiya xizmatlari ko'rsatish turistik korxonalar(firmalar) tomonidan ularga qarashli bo'lgan ma'muriy hududda (shahar, rayon) amalgam oshiriladi. Boshqa shaharga boruvchi guruhlar bilan ishlash (hatto ma'lum rayonda bo'lsa ham) o'sha shaharlardagi ekskursiya muassasalari yoki turistik korxonalariga o'tkaziladi.

Guruh bilan birga ketadigan ekskursavod uning rahbari vazifasini bajaradi, yo'l axborotlari beradi. Bunday yondashuv hozirgi davrda ekskursiya xizmatlari ko'rsatish taraqqiyotiga davlat tomonidan ortib bhorayotgan e'tiborni xarakterlaydi. Ekskursiya xususiyati shundan iboratki, unda ko'rsatish va hikoya qilish organic ravishda uyg'unlashgan. Ekskursavod obyektini ko'rsatar ekan, u haqidagi ma'lumotlarni tahliliy jarayonlar, tushuntirishlar, tarixiy ma'lumotlar bilan to'ldirib boradi. U ko'rganlarni to'g'ri qabul qilishga, obyekt bilan bog'liq voqealar, hodisalar, dalillarni obyektiv baholashga o'rgatadi. Shu tarzda bilish jarayonida ekskursantlar dinyoqarashiga maqsadli yo'naltirilgan ta'sir amalgam oshiriladi. Berilgan ma'lumotlar esa ko'rgazmaliligi sharoiti bilan yaxshi eslab qolinadi va dunyoqarashining kengayishiga imkon beradi.

Har bir ekskursiya mavzusi va maqsadidan qat'iy nazar quyidagi belgilarga ega bo'lishi shart:

- Aniq vazifa, mavzu va maqsad mavjudligi;
- Guruh yoki individual(yakka) ekskursant mavjudligi;
- Ekskursavod borligi;
- Vaqtning davomlilikgi;
- Ekskursiya obyektlarini bevosita ular joylashgan o'rinda ko'rsatish;
- Tomoshaning maqsadga muvofiqligi;
- Oldindan ishlab chiqilgan yo'nalish bo'yicha harakatlanish;

Ekskursiya asosiga quyidagi tamoyil (prinsp) lar qo'yilgan:

- Ilmiylik – faqtlar, voqealar, nazariyalar (g'oyalar) , jihatlar, ilmiy talqinda beriladi, obyektiv baho, ular mansub bo'lgan zamonaviy fan sohalari pozitsiyasidan turib qaraladi;

- G'oyaviyligi;
- Haqqoniyligi;
- Nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi;
- Topqirlik;
- Ishonchlilik;

Ekskursiya quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Iqtisodiy;
- G'oyaviy – siyosiy;
- Umumtalim;
- Axborot beruvchi;
- Tarbiyaviy;
- Mazmunli dam olishni tashkil etish;
- Dunyoqarashni kengaytirish;
- Insonda qiziquvchanlikni shakillantirish;
- Ixtisoslashgan (kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash);
- Ekskursiya yaratish jarayonlariga quyidagi bosqichlar xos:
- Mavzular tanlash;
- Manbalarni tanlash va o'rganish;
- Tanlangan mavzu bo'yicha yangi rkskursiya yaratish;
- Uni o'tkazishga tayyorgalik.

Ekskursiyada aynan **hikoya qilish** va **namoyish etish** asosiy xususiyatlardir. Lekin ko'rilayotgan narsalar haqida chuqur tahlil, ma'no, tushuncha berilmasa, bu ishtirokchilar uchun faqatgina diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish bo'ladi. Ekskursiyaning mazmuni ham ko'rilayotgan obektlarga qiziqarli ma'lumotlarni aytib berishdan iborat.

Gidning ob'ekt haqida aniq faktlar, hodisalar, jarayonlarga asoslanib hikoya qilayotganlari sayyohlar ongida ko'rayotganlari bilan bog'lanib umumlashadi. Shu tariqa gid sayyohlarga ob'ektlarni to'g'ri ko'rishni o'rgatadi. Bu jarayonda ekskursiyaning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan atrof-muhitni emotsional qabul

qilish katta rol o‘ynaydi. Gid sayyohlarni nafaqat eshitish va ko‘rishga, balki voqea hodisalarni his etishga majburlashi kerak. Ko‘rgan va eshitganlar sayyohlarga javob hissiyotini uyg‘otish zarur (hayrat, quvonch, g‘urur).

Ekskursiya—bu nafaqat vaqt o‘tkazish, balki jismoniy va ruhiy kuch sarflashni talab qiluvchi, bo‘sh yoki o‘qish vaqtidagi intellektual faoliyatidir.

Ekskursiya o‘zining ko‘rgazmaliligi, daromadliligi, hissiyotliligi bilan insonlarning ruhiy qiyofasi shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

B.V.Yemelyanov ekskursiyaning qo‘yidagi 6 ta xususiyatlarini ajratgan:

- vaqt davomiyligi (2 soatdan 1 kungacha);
- sayyohlar guruhining mavjudligi (10-15 kishi);
- malakali mutahassis - *gidning* mavjudligi;
- ekskursiya ob’ektini ko‘rib chiqish;
- ob’ektlar bilan harakatda va to‘xtab tanishish (avtobusdan tushib);
- ekskursiya yo‘nalishini belgilab beruvchi aniq mavzuning mavjudligi.

Hozirda ekskursiya amaliyotida ekskursiyaning asosiy xususiyatlarini belgilashda erkin qaralmoqda. Masalan: turistlar guruhi bir necha kishidan iborat (1-2 kishi) bo‘lishi mumkin; ob’ekt bilan tanishish uchun avtobuslardan tushish shart emas (agar ob’ekt yaxshi ko‘rinsa). B.V.Yemelyanov ko‘rsatgan ekskursiyaning boshqa xususiyatlari esa o‘zgarmay qoladi.

Ekskursiyaning albatta maqsad va vazifalari aniq bo‘lishi shart. Chunki, shular ekskursiya ob’ektlari, marshrutlari, adabiyot manbalarini tanlashda va “gid portfeli”ni yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Lekin ekskursiyaning eng asosiy xususiyatlari uni o‘tkazishda ekskursiya uslublaridan foydalanishdir, ya’ni namoyish va hikoya qilishning uyg‘unligidadir(bir-birini to‘ldirish).

Tasniflash (klassifikatsiya) — bu aniq bir belgilarga qarab bir turdagi predmetlarni bo‘limlarga, klasslarga ajratishdir.

Ekskursiyani tasniflash-ekskursiyani olib borish harakteriga, xususiyatlariga, mazmuniga qarab guruhlarga ajratishdir. Bu esa ekskursiya

amaliyotida katta ahamiyatga ega. Ekskursiyani tasniflash gid ishini tashkil etishda yordam beradi.

Ekskursiyaning barcha turlarini qo‘yidagi xususiyatlari bo‘yicha tasniflash mumkin:

- mazmuniga ko‘ra;
- qatnashuvchilar tarkibiga ko‘ra;
- o‘tkazish joyiga ko‘ra;
- o‘tkazish shakliga ko‘ra;

Mazmuniga ko‘ra ekskursiya *ko‘rgazmali* va *tematik* turlarga bo‘linadi.

Mavzuli ekskursiyalar o‘z navbatida qo‘yidagi guruhlariga bo‘linadi:

- tarixiy;
- harbiy-tarixiy;
- ishlab chiqarish ob’ektlari;
- madaniy;
- adabiy;
- arxitektura qurilishi.

Qatnashuvchilar tarkibiga ko‘ra:

- katta yoshdagi odamlar uchun;
- maktab yoshdagi bolalar uchun;
- yosh bolalar uchun;
- mahalliy aholi;
- boshqa shahardan kelganlar;
- horijiy mehmonlar uchun.

Qatnashuvchilar tarkibiga ko‘ra ekskursiya ob’ektlari, ma’lumotlar, hikoya mazmunlariga o‘zgarishlar kiritiladi. Xorijiy mehmonlar ekskursiya davomida gidga ko‘proq savol berishadi va u bunga tayyor turishi kerak. Gid hikoya qilib berayotgan ma’lumotlar hammaga ma’lum ekanligini unutmasligi, haqiqatdan uzoqlashmasligi ham muhimdir. Gid uchun sayyohlar tarkibini o‘rganish, bilish ekskursiyani samarali o‘tishining asosidir.

Ekskursiyaning o‘tkazish joyiga ko‘ra:

- shaharda;
- shahardan tashqarida;
- ishlab chiqarish ob'ektlarida;
- muzeylarda;
- madaniy (diniy) inshootlarda;
- tabiat yon bag'rida;
- cho'llarda bo'lishi mumkin va b.bo'lishi mumkin.

Shahar ekskursiyalari ko'rgazmali va tematik bo'ladi. Unda shaharning barcha joylarini yoki bir qismini ko'rsatish mumkin(eski shahar, bozorlari, maydonlar).

Shahardan tashqarida ekskursiya avtobusda va piyoda tashkil etilishi mumkin. Avtobusli ekskursiyalar odatda 100 km dan uzoq bo'lmaydi. Piyoda ekskursiyada guruhni aniq joygacha maxsus transportda olib boriladi, so'ng qolganida ular piyoda borishadi (Masalan,poyezd, vertolyot, teploxodda). Shahardan tashqari ekskursiyalar bir necha xil bo'ladi.

*Birinchi*dan, ekskursiya faqat oxirgi punktda o'tkaziladi (o'rmon, tog', kichik shahar).

*Ikkinchi*dan, ekskursiyada yo'l-yo'lakay diqqatga sazovor joylar marshrut bo'ylab ko'rsatiladi.

*Uchinchi*dan, har ikkisini umumlashtirilgan holda o'tkaziladi. Bunda ekskursiyani oxirgi punktda guruhni qabul qilib oluvchi turistik tashkilot gidi yoki muzey xodimlari ekskursiyani olib boradi.

Ishlab chiqarish korxonalari- zavod, fabrikalar, temir yo'l vokzallari, qishloq xo'jalik korxonalar, ilmiy tadqiqot institutlari, aeroportlar ekskursiya ob'ektlari hisoblanadi.

Muzeylarda (galereya, ko'rgazma) ekskursiyalarni tashkil etish eng ko'p tarqalgan ekskursiyalar guruhiga kiradi, qatnashuvchilar soni ham boshqa guruhdan ko'ra ko'proq bo'ladi.

Madaniy-diniy inshootlar ekskursiyalarida diniy mavzularga oid mustaqil ekskursiyalar tashkil etiladi. Ekskursiyalarning tematikasi bir-biridan kamdan-

kam hollarda ajralgan bo‘ladi. Chunki tarixiy materiallardan barcha ekskursiya turlarida foydalaniladi.

Ekskursiyani tayyorlash ekskursiyani tuzuvchilardan ijodiy yondashuvni talab qiladi. **Ekskursiyani tayyorlash**—bu shahar va hududlarning ekskursiya imkoniyatlaridan kelib chiqib, turistik korxonaning doimiy mijozlari ehtiyojiga asoslangan holda, ekskursiyaga yangi mavzular ishlab chiqishdir.

Yangi *ekskursiyani tayyorlash* jarayoni o‘z ichida mavzuni aniqlash, ekskursiya maqsad va vazifalarini qo‘yish, ob’ektlarni tanlash va o‘rganish, ekskursiya marshrutlarini tuzish, ekskursiya mavzusi bo‘yicha adabiy manbalarni o‘rganish, mutaxassislar bilan konsultatsiyalar olib borish, ekskursiyaning asosiy matnini (kontrolniy tekst) yozish, “gid portfeli”ni taxlash, ekskursiyani o‘tkazish metodikasini tanlash va texnologik haritasini tuzishdan iboratdir.

Ekskursiyani tayyorlash negizida pedagogik bilimning bosh prinsipi va talablari: o‘qitish va tarbiyaning bog‘liqligi, hikoyalarda ketma-ketlik, fikrlarning aniq va tushunarli bo‘lishi, hissiyot, sayyohlar yoshi xususiyatlari hisobga olingan holda bo‘lishi shart.

Yangi ekskursiya mavzusini ishlab chiqishda 3-6 kishidan iborat ijodiy guruh (gidlar) yig‘iladi. Ular orasidan rahbar tanlanadi. Ijodiy guruhning har bir a‘zosi o‘z g‘oyalari, materiallarini taqdim etadi va bu materiallar umumlashtiriladi.

Har bir ekskursiya o‘zining aniq mavzusiga ega va shu mavzu asosida namoyish va hikoyalar tayyorlanadi. Ayniqsa, bu ko‘p mazmunli ob’ektlar namoyishida muhimdir. Chunki bitta ob’ektni har xil mavzularda yoritish mumkin.

Ekskursiya **mavzusi** shahar arxitekturasi, ijodkor hayoti, ko‘cha tarixi, ekologik ahvol, hayvonot olami, shaharning iqtisodiyoti va hokazo bo‘lishi mumkin.

Ekskursiya **nomi (nomlanishi)** ham uning mazmunini ochib beradi (Moviy gumbaz ostida, Sharq taronasi-qalb durdonasi, Marg‘ilon- 2000 yoshda).

Ekskursiya nomini belgilayotganda qo‘yidagilarga yo‘l qo‘ymaslik kerak: so‘zlarni qisqartirmaslik, abbreviaturalardan, xorijiy leksikonlardan olingan so‘zlardan foydalanmaslik. Ekskursiya nomi o‘zining individualligi, tez yodda qolishi, yoqimli eshivilishi, mazmunga to‘g‘ri kelishi bilan ajralib turishi kerak.

Oldindan maqsad belgilamay ekskursiyani tayyorlash mumkin emas. **Ekskursiya maqsadlari** – vatanparvarlik, mehnatni sharaflash, estetik va ekologik tarbiya, shahar tarixi va davlat iqtisodiyotiga qo‘shgan hissasini o‘rganish, o‘lka tabiati bilan tanishish va boshqalar bo‘lishi mumkin. Ekskursiyaga uchtadan ziyod maqsad qo‘yish noto‘g‘ri bo‘ladi, chunki hech qaysisiga erishmaslik mumkin.

Mavzular uchun ob’ektlarni tanlash. Ekskursiya *obektlari*- tabiat manzaralari- tog‘, daryo, g‘or, qo‘riqxonalar; muzeylar; qasrlar, favvoralar, maydonlar, arxeologik yodgorliklar bo‘lishi mumkin.

Obektlar quyidagi mezonlar bo‘yicha baholanadi:

- obektning talimiy ahamiyati;
- mashhurligi;
- takrorlanmas, ekzotik bo‘lishi;
- hozirgi ahvoli;
- manzili.

Ekskursiya obektlari baholanib, adabiy manbalar o‘rganilgandan so‘ng, har bir obekt uchun kartochka tuziladi. *Kartochkaga* quyidagi malumotlar kiritiladi:

- obekt nomi;
- obekt bilan bog‘liq tarixiy voqealar (yili);
- obekt manzili;
- obekt va voqealar haqidagi malumotlar manbai;
- obektning saqlanganlik holati;
- obekt kimning nazorati ostida;
- obekt haqida qisqacha malumot(muallifi, qachon qurilgan, yozuvlar);
- kartochka tuzilgan kun va masul shaxs.

Yuqoridagi bo‘limlarga qo‘shimchalar kiritish mumkin.

Ekskursiya obektlarini o'rganishni territoriya haritasini tuzish bilan yakunlash maqsadga muvofiqdir. Haritada diqqatga sazovor joylar maxsus belgilar bilan belgilanadi va shu marshrut bo'ylab ekskursiya harakatlanadi (masshtabi 1:25000; 1:10000; 1:5000). Umumiy qabul qilingan belgilar yo'q, uni ijodiy guruhning o'zi belgilaydi.

Ekskursiya obektlari o'rganilib, harita-sxema tuzilganidan so'ng, obektlarni saralash bosqichi boshlanadi. Obekt mazmunan ekskursiya maqsadiga to'g'ri kelishi kerak. Obektlar **asosiy** va **qo'shimcha** bo'ladi.

Asosiy obektlarga ularsiz ekskursiya mavzusini yoritish mumkin bo'lmagan obektlar kiradi.

Qo'shimcha obektlar alohida epizod, fakt, detallarni tushuntirib berishga yordam beradi.

Mavzu bilan bog'liq bo'lmagan obektlarni yoritmaslik kerak. Chunki u sayyohlarni chalg'itishi va ketma-ketlikni buzishi mumkin.

Ekskursiya amaliyotida 2-3 soat davomida shaharning 5-10 ta obektini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Ko'rgazmali materiallardan foydalanish va ekskursiya marshrutini aniqlash.

Ko'rgazmali materiallarni tanlashdagi mezonlar quyidagilar:

- ularni ishlatishning zaruriyligi va maqsadlilik;
- ommaboplik qiymati, yani ushbu ko'rgazmali qurol hikoyani qanchalik boyitishi, tushunarli qilishi mumkin;
- g'aroyibli;
- ifodaliligi;
- saqlanganlik holati.

Rasmlar, harita-sxemalar, reproduksiyalar 18x24sm o'lchamli karton asosli, tiniq va aniq tasvirga ega bo'lishi shart. Avtobusda ko'rsatishga mo'ljallangan ko'rgazmali qurollar 24x30sm o'lchamli bo'lishi zarur (orqa qatorga o'tirganlar ko'rishlari uchun).

Ko'rgazmali materiallar ro'yxati, tarkibi ekskursiyaning butun hayotiy davrida o'zgartirilib, takomillashtirib borilishi mumkin.


Ekskursiya marshruti- bu ekskursiya guruhi bosib o'tadigan yo'l. Marshrut ixcham, har bir obektga 10-15 daqiqa vaqt ajratilib, ishlab chiqilishi kerak.

Marshrut *xronologik, tematik va tematik-xronologik* tartibda tuziladi. Obektlar har joyda joylashganligi sababli xronologik tartibga rioya qilish qiyin bo'ladi. Shuning uchun tematik marshrut tuzish osonroq bo'ladi.

Marshrutni tuzishda obektlardan takroriy harakatlanishga yo'l qo'ymaslik kerak. Lekin bunga ham hamma vaqt erishib bo'lmaydi.

Marshrutni ishlab chiqish ekskursiya marshruti sxemasini tuzish bilan yakunlanadi (ko'cha va maydonlar nomi, avtobusdan tushish joyi, avtobus tezligi- sekin-30km.s; o'rta-40-50km.s; tez-60—km.s).

1.1.1-rasm. Ekskursiyaga ta'sir qiluvchi omillar¹



¹ R.S. Amriddinova "Ekskursiya ishini tashkil etish", Ma'ruzalar matni. SamISI. 2009

1.2. Ekskursiya xizmatlarini tashkil qilishning o‘ziga xususiyatlari

Ekskursiya matnini tayyorlash. Ekskursiya marshruti tasdiqlangandan so‘ng ijodiy guruh ekskursiya matnini tuzishni boshlaydi. Ekskursiya amaliyotida u *asosiy matn* (kontrolniy tekst) deyiladi. Unga ijodiy guruh ishlab chiqqan ekskursiyani olib borish uchun barcha materiallar kiritiladi. Eng muhim malumotlar tanlanib, xulosalar qilinadi. Asosiy matnda foydalaniladigan materiallar manbaini ko‘rsatish zarur.

Matn ham xronologik tartibda va ham ekskursiya obektlarining marshrut bo‘ylab joylashganligiga qarab tuzilishi mumkin, yani, mavzular yoritilishi ketma-ketligiga qarab. Asosiy matnda shuningdek, chiqishlar, xulosalar, mavzular orasidagi mantiqiy o‘tishlardan tuzilgan materiallar ham kiritiladi. Unda mavzuga taaluqli, lekin ekskursiyani ishlab chiqishda nazarda tutilmagan obektlar ham kiritilishi mumkin. Bu keyinchalik o‘sha mavzuda ekskursiya variantlarini ishlab chiqishda kerak bo‘ladi.

Amaliyotda uch soatlik avtobusli ekskursiyada asosiy matnning hajmi 40-50 varag‘ni, piyoda ekskursiyada 25-30 varag‘ni (14 shrift, 1.5 interval) tashkil etishi belgilangan.

Ijodiy guruh tomonidan ishlab chiqilgan va turistik tashkilot tomonidan tasdiqlangan ekskursiyaning asosiy matni gidlar individual matnini tuzishda asos bo‘ladi. Asosiy matnni tayyorlashda yana bir muhim talab, bu titul varag‘ining mavjudligidir. Unda yangi ekskursiyani ishlab chiqqan turistik- ekskursiya tashkiloti nomi, ekskursiya mavzusi, ijodiy guruh tarkibi, ekskursiya tasdiqlangan sana ko‘rsatiladi.

Gidning individual matni. *Individual matn* –bu hikoya qilib berishga tayyor ekskursiya mahsulotidir, yani ekskursiya hikoyasi uchun matndir. Individual matn tarkibi 3 qismdan iborat: chiqish(vstupleniye), asosiy qism, xulosa.

Chiqish va xulosa qismi asosiy qismdan tubdan farq qiladi, ular ekskursiya obektlari bilan o‘zaro bog‘liq emas. Bular ko‘proq maruza, suhbatga yaqinroqdir.

Chiqish *tashkiliy* va *axborot* qismlariga bo‘linadi. *Tashkiliy* qismda gid o‘zining ismi sharifini, ekskursiyani tashkil etgan muassasa nomini, avtobus haydovchisini tanishtiradi, mavzu va marshrutni elon qiladi, ekskursiya davomiyligini, uning yakun topish joyini (ushbu joyga xoxlovchilar avtobusni tark etishi mumkin), avtobusda o‘zini tutish haqida aytib o‘tadi.

Axborot qismida gid ekskursiya mazmunini qisqacha bayon qiladi, sayyohlar ko‘radigan diqqatga sazovor obektlarni, kichik mavzularni (podtema) sanab o‘tadi.

Chiqish 5-7 daqiqadan oshmasligi va uni marshrutga harakatni boshlamasdan avval o‘tkazish kerak. Chiqish eng masuliyatli bosqichdir va u yorqin bo‘lishi shart. Shu bosqichda sayyohlar bilan aloqa o‘rnatiladi, ular gid haqida ilk taasurotni oladilar. Yaxshi chiqish gid muvaffaqiyatini taminlaydi. Malakali gid aynan chiqish paytida guruh bilan o‘zaro tushunish nuqtasini topib, ularni o‘ziga jalb qilib, o‘z ishining ustasi sifatida ekskursiyaning muvaffaqiyatini taminlaydi.

Asosiy qism namoyish etish va hikoya qilish uyg‘unligida shakllanadi va bir-biri bilan *mantiqiy o‘tishlar* (logicheskiy perexod) bilan bog‘langan, har xil obektlarga yoritiladigan mavzulardan tashkil topadi. *Mantiqiy o‘tishlar* oldingi mavzular mazmunidan kelib chiqib, keyingi mavzuni hikoya qilishga yordam berishlari kerak. Mantiqiy o‘tish umumlashtirish, taqqoslash, to‘ldirish harakteriga ega bo‘lishi mumkin. Mazmunli, chiroyli mantiqiy o‘tish gidning yaxshi uslubiy tayyorgarligi va yuqori professionaligidan darak beradi.

Ko‘pgina hollarda birinchi mavzuni tugatib, ikkinchi obektga o‘tish jarayonida gidlar ekskursiya mazmuniga to‘g‘ri kelmaydigan rasmiy o‘tishlardan foydalanadilar. Masalan: ”Hozir biz sizlar bilan u tomonga borib, ... ni ko‘ramiz” yoki “ana endi biz boshqa yodgorlikka o‘tamiz”. Bunday rasmiy o‘tishlar ekskursiyaning xom ishlanganligidan dalolat beradi. ular ekskursiyaning alohida qismlarini bir-biri bilan bog‘lanishiga yo‘l qo‘ymaydi.

B.V. Yemelyanov fikricha, rasmiy o‘tishlarni gidlarning sistematik xatosi deb hisoblash noto‘g‘ri. Ular obektlar orasidagi harakat bir necha soniyani

tashkil etganda, majbur ishlatiladi (obekt avtobusdan tomosha qilinayotgan bo'lsa). Masalan: "endi tezda o'ng qo'l tarafga qarang, nazdimizda... yodgorligi".

Xulosa qismida gid ekskursiya mavzusi bo'yicha xulosa va yakun yasaydi, sayyohlar savollariga javob beradi.

"Gid portfeli"ning ahamiyati. Professional muhitda "gid portfeli" deb, namoyish etish, ko'rish qatorlariga yetishmayotgan bo'g'inlarni to'ldirish va tiklash uchun mo'ljallangan ko'rgazmali qurollar jamlanmasiga aytiladi. Bu ayniqsa, ko'rsatmoqchi bo'lgan obektlar bizgacha o'zgargan hollarda yetib kelgan yoki umuman saqlanmagan hollarda muhimdir. Shunda rasmlar, chizmalar obektning birinchi holatini tiklashga yordam beradi.

"Gid portfeli"da yana ekskursiya mavzusiga taaluqli shaxslar rasmi, kartinalar reproduksiyasi, geologik haritalar, harbiy voqealar tasvirlangan harita-sxemalar, ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsuloti namunasi, gerbariyalar, geologik namunalar, magnitofon tasmalari, yani ekskursiya sharhini yanada boyitidigan boshqa illyustrativ materiallar kiradi.

Ko'rgazmali qurollarni tanlashdagi mezonlar quyidagilar:

- ularni ishlatishning zaruriyligi va maqsadlilik;
- ommaboplik qiymati, yani hikoyani ushbu ko'rgazmali qurol qanchalik boyitishi, tushunarli qilishi mumkin;
- g'aroyibli;
- ifodaliligi;
- saqlanganlik holati.

Rasmlar, harita-sxemalar, reproduksiyalar 18x24sm o'lchamli karton asosli, tiniq va aniq tasvirga ega bo'lishi shart. Avtobusda ko'rsatishga mo'ljallangan ko'rgazmali qurollar 24x30sm o'lchamli bo'lishi zarur (orqa qatorga o'tirganlar ko'rishlari uchun).

Ekskursiyaning texnologik haritasi. bu sinov ekskursiyani qabul komissiyasiga topshirishdan oldin, ekskursiyani tuzishdagi ijodiy jarayon oxirida tuziladigan yakuniy hujjatdir. Unda (gid o'zining hikoyasida foydalanishi uchun) ekskursiyaning mavzusi, maqsad va vazifalari, marshrutning optimal

varianti, uning davomiyligi, masofasi, obektlar, to‘xtash joylari, mavzuchalar, tashkiliy va metodik ko‘rsatmalar, sharh va hikoyaning metodik usullari ko‘rsatiladi. Sayyohlarga konkret obektlarda ekskursiya mazmunini qanday yoritish samaraliroq ekanligini texnologik harita ko‘rsatadi. Uning *maqsad*-gidga ekskursiyani olib borishda ijobiy natijaga erishish yo‘llarini ko‘rsatishdir. Bundan tashqari, ekskursiyaning texnologik haritasi ekskursiya faoliyatini olib borish, turistik-ekskursiya tashkilotini sertifikatlashtirish uchun talab qilinadigan asosiy hujjatdir.

1.2.1-jadval. Ekskursiyaning texnologik haritasi²

Ekskursiyaning texnologik haritasi

Ekskursiya mavzusi-----

davomiyligi(soat)-----

masofasi(km)-----

mualliflar-----

ekskursiyaning mazmuni-----

Ekskursiyaning marshruti, shuningdek marshrut varianti(yozgi, qishgi);-----

<i>Marshrut bo‘ylab harakatlanish uchastkasi</i>	<i>To‘xtash joylari</i>	<i>Ko‘rildigan obektlar</i>	<i>Davomiy- ligi</i>	<i>Axborotning asosiy mazmuni</i>	<i>Tashkiliy ko‘rsat- ma</i>	<i>Metodik ko‘rsat- malar</i>
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>	<i>7</i>

Ekskursiya matni kabi texnologik harita ham, uch qismdan iborat: *chiqish, asosiy qism* va *xulosa*.

Chiqish va xulosa ekskursiya obektlari bilan bog‘liq emas va haritada tasvirlangan grafikdan (asosiy qismdan) oldin va keyin joylashadi. Unda gid sayyohlarni ekskursiya mazmuni va hikoyasiga etiborini jalb qilish uchun

² R.S. Amriddinova ”Ekskursiya ishini tashkil etish“, Ma’ruzalar matni. SamISI. 2009

nimalarni e'lon qilishi shart bo'lgan ko'rsatmalarni yozadi (texnologik haritada matn grafalar hisobga olinmagan holda yoziladi). Kirish qismida uning variantlari ko'rsatilishi mumkin, undan foydalanish ekskursiya guruhi tarkibiga bog'liq bo'ladi.

1. *Grafa.* "Marshrut bo'ylab harakatlanish uchastkasi" da ekskursiya guruhi harakatlanadigan ko'chalar, xiyobonlar, shosselar, maydonlar ko'rsatiladi. Birinchi bo'lib ekskursiya boshlanadigan joy ko'rsatiladi. So'ngra texnologik haritaga ko'ra, ekskursiyaning ilk mavzusini ochib beruvchi obekt joylashgan ko'cha (xiyobon) yoziladi. Keyin oldingi obektdan keyingi obektgacha bo'lgan yo'l qismlari ko'rsatiladi.

2. *Grafa.* "To'xtash joylari" ga avtobus to'xtaydigan va undan tushmasdan obektlarni ko'rish, yoki avtobus to'xtab sayyohlarning avtobusdan tushish joyi, shuningdek, piyoda ekskursiya boshlanadigan marshrut nuqtalari ko'rsatiladi.

3. *Grafa.* "Ko'riladigan obektlar" da sayyohlarga to'xtash joylariga, avtobusda va piyoda harakatda ko'rsatiladigan aniq obektlar ro'yxati beriladi. Bu yerda ham asosiy va ham qo'shimcha obektlar ko'rsatilishi mumkin. Obektning to'liq nomi, mualliflar ismi sharifi yoziladi.

4. *Grafa.* "Davomiylik" da obektni ko'rsatish va uni hikoyasi uchun kerakli vaqt ko'rsatiladi. Bu vaqt oralig'ida obektni erkin tomosha qilish ekskursiya rejasiga kiritilgan bo'lsa, keyingi obektgacha harakat vaqtini ham hisobga olib ko'rsatilishi kerak.

5. *Grafa.* "Axborotning asosiy mazmuni" da marshrutga mavzuchalar (podtema) va ularga qisqacha annotatsiyalar beriladi. Mavzuchalar ekskursiya mavzusining tarkibiy qismidir. U bir yoki bir necha obektga yoritilishi mumkin. Bu obektlardagi axborot mazmuni hamda ekskursiyadagi sayyohlar kategoriyasiga bog'liq. Mavzuchalar ekskursiya materialining ichki mantiqiga asosan mavzuni ketma-ket yoritadi.

6. *Grafa.* "Tashkiliy masalalar" da ekskursiya guruhining obekt oldidagi holati, ularning xavfsizligini taminlash, tarixiy va madaniy obektlar oldida o'zini tutish qoidalari, sanitariya-gigiyenik talablar ko'rsatiladi. Tavsiyalar aniq

berilishi shart. Masalan, avtobus teatr kassasi oldida to‘xtatilsin; guruh Sher-dor madrasasi oldida yig‘ilsin; sexga kirishdan oldin xavfsizlik qoidasi eslatilsin va obektning ko‘rib chiqish tartibi tushuntirilsin.

7. *Grafa*. “Metodik ko‘rsatmalar”da ko‘rsatish va hikoya qilib berish bilan bog‘liq gidga ko‘rsatmalar beriladi. U yerda ko‘rsatish jarayonida gid etibor berishi lozim bo‘lgan obektning konkret detallari, tahlil ketma-ketligi, ko‘rsatish va hikoya qilishda qo‘llaniladigan metodik usullar tavsiyasi, “gid portfeli” materiallaridan foydalanish bo‘yicha maslahatlar, mantiqiy o‘tish variantlari, sitatlar uchun materiallar beriladi. Metodik ishlanma tuzilganidan so‘ng uni mutaxassislariga ko‘rsatib, keyin turistik-ekskursiya muassasasi rahbari qarori bilan tasdiqlatish zarur.

Sinov uchun ekskursiya o‘tkazish – bu yangi ekskursiya tuzish jarayonidagi eng hayajonli va yakunlovchi bosqichdir. Unda turistik- ekskursiya tashkilotlari rahbarlari, ijodiy guruh azolari, gidlar, ilmiy xodim va mutaxassislar taklif etiladi. Ular yangi ishlab chiqilgan ekskursiya sifati haqida xulosalar berishlari shart.

Sinov ekskursiyani odatda ijodiy guruh rahbari yoki ijodiy guruh azolaridan biri o‘tkazadi. Sinov ekskursiyaga taklif etilganlarga ekskursiyani *mulohazalar kartochkasi* (kartochka proslushivaniya) beriladi. Savol-javoblar yordamida ekskursiya sifati baholanadi. Kartochkaga quyidagi ma'lumotlar qayd etiladi (turistik- ekskursiya tashkilotlari o‘z variantlarini tuzishda uni asos qilib olishlari mumkin):

1. Ekskursiyani ko‘rib chiqish kartochkasi.
2. Ekskursiyaning nomi.
3. Ekskursiya turi.
4. Ekskursiya davomiyligi.
5. Ekskursiyaning mazmuni: qo‘yilgan maqsadga mosligi, materiallar to‘liqligi umumiy va mahalliy materiallarning muttanosibligi, mavzular bo‘yicha umumlashtirish.

6. Ekskursiyani olib borish metodikasi: ekskursiya tarkibi(chiqish, asosiy qism, xulosa), obektlar va mavzuchalarga vaqtning to'g'ri taqsimlanganligi, gidning guruh bilan munosabati, mantiqiy o'tishlar, namoyish va hikoya qilishning metodik usullari, ekskursiyada foydalaniladigan ko'rgazmali vositalar.
7. Ekskursiyani olib borish texnikasi:obektlarni tomosha qilishda joy tanlash, guruhni obekt oldida joylashtirish, mikrofondan foydalanish, savol-javoblar, gidning avtobus haydovchisi bilan munosabati.
8. Gidning nutq madaniyati: bilim darajasi, aniqlik, mantiqiylik, obrazlilik, hissiyotlik.
9. Eshitib, ko'rib chiqishdan so'ng xulosalar: ekskursiya mazmunining matn va texnologik haritaga mos kelishi, ekskursiyani umumiy baholash.
- 10.Gidga maslahatlar.

Sinov ekskursiyani mutaxassislar tomonidan baholanishi. Sinov ekskursiya tugaganidan so'ng munozaralar boshlanadi. Ekskursiya jarayonidagi mazmun, texnika, madaniyat barchasi baholanadi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanadi. Ular orasidan ayniqsa, quyidagilar aytib o'tiladi: namoyish jarayoning yaxshi, to'liq ochib berilmaganligi, ekskursiyada rasmiy mantiqiy o'tishlardan foydalanish, chiqishdagi malumot qismining ishonarli bo'lmaganligi, zamonaviylik bilan bog'lanmaganligi...

Bahs-munozaralardan so'ng, kamchiliklarni qayta ko'rib chiqish uchun ijodiy guruhga vaqt beriladi va yana ekskursiyani qayta topshirish tashkil etiladi. Komissiya ekskursiyani ijobiy baholaganidan so'ng, turistik- ekskursiya muassasasi rahbari qarori bilan ekskursiya qabul qilinadi va muassasa ishlari rejasiga kiritiladi.

Ekskursiyani olib boorish. Avval aytib o'tilganidek, ekskursiya bu diqqatga sazovor, tarixiy joylarni ko'rsatish va ularning ushbu o'lka iqtisodiyoti, madaniyati, tabiyatiga tutgan o'rni haqida hikoya qilish bilan harakterlanadi. Ekskursiyaning bu ikki elementi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.U yoki bu obektlarning mavjudligi hikoya mazmunini belgilaydi, hikoyaning o'zi esa,

ko'rsatish uchun aniq obektning mavjudligini talab qiladi. Lekin shuni yodda tutish kerakki, ekskursiya uchun eng muhimi ko'rsatish, namoyish etishdir. U aniq bir reja texnologik harita asosida olib boriladi. Namoyish etish-obektlar tahlili, zaruriy tushuntirishlar, xulosalar bilan to'ldiriladi.

V.A.Sichinava fikricha³, ekskursiyaga muhim rol o'ynaydigan ko'rgazmali vositalar 3 turga bo'linadi:

- * ekskursiya marshrutidagi haqiqiy(asosiy) ekskursiya obektlari;
- * qo'shimcha illyustrativ materiallar(gid portfelidagi ko'rgazmali materiallar);
- * so'zli-obrazli material gid mahoratiga bog'liq bo'lib, voqealarni yorqin tushuntirib berish evaziga erishiladi.

Ekskursiya obektlarini ko'rsatish metodlari. Obektlarni namoyish etish metodi oson emas va u quyidagilarga bog'liq: harakat vositasi, ishtirokchilar tarkibi, ommaviy qiymati, mashhurligi, namoyonligi, saqlanganlik holati.

Ko'rsatish, namoyish etish texnologiyasida ikkita qismni ajratish mumkin. Birinchisi, sayohatchilar etiborini obektga jalb etish va uni atrofidagi binolardan ajratib ko'rsatish maqsadida uning tashqi ko'rinishini so'z bilan ifodalash. Unda: a) qo'l harakatlari bilan obekt joyi ko'rsatiladi(chapda, o'ngda, ikki qavatli bino yonida...), b) obektning tashqi maxsus xususiyatlari sanab o'tiladi(balandligi, rangi, detallari soni, oynalari shakli, devordagi yozuvlari...).

Ikkinchisi, namoyish, ko'rsatishning mazmunli qismi, ko'rsatishning metodik usullaridan foydalanishni taqozo etadi. Ekskursiya nazariya va amaliyotida bu metodlar Yemelyanov rahbarligidagi bir qator mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

-- *Oldindan tomosha qilib chiqish* metodi haqida Yemelyanov quyidagicha yozadi(1976y): "Bu metod sayohatchilar yodgorlik yonida turganlarida va allaqachon yodgorlikni ko'rib bo'lganlaridan so'ng ishlatiladi. Masalan," Sizing qarshingizda bobokalonimiz Amir Temur haykali ".Gid bu bilan

³ Li D. M, Talipov M.A teksti lektsi po predmetu "Ekskursovedeniye". Toshkent 2003g. Tashkentski Gosudartstvenniy universitet.

sayohatchilar etiborini obekt tomon qaratishni, uning umumiy ko‘rinishiga, detallariga etibor berishni taklif etadi. Yodgorlikni birinchi marotaba ko‘rayotganlarga *oldindan tomosha qilish* metodi kitoblarga, otkritikalarga ko‘rganlari bilan ro‘parasidagini taqqoslash imkonini beradi. *Oldindan tomosha qilish* metodi ekskursiya obekti kattagina maydonni egallagan bo‘lsa ham(masalan,Xo‘ja Ismoil al-Buxoriy masjidi, Ichan-qala), 1,5-2 daqiqa davom etishi kerak. Ushbu jarayon boshlanishidan avval, sayohatchilarga obektning u yoki bu detaliga etiborini yo‘naltirish maqsadida maslahatlar berish mumkin”

--*Ko‘rish orqali rekonstruksiyalash(zritelnaya rekostruksiya)* metodi bu qisman saqlanib qolgan obektning avvalgi holatini xayolan tiklashdir.Bu metod ekskursiyada o‘tmishdagi arxitektura yodgorliklari va inshootlarini ko‘rsatayotganda, ular bizgacha asl holatini saklab qolmaganda, keng qo‘llaniladi.Obektlarning ko‘pginasi avvalgi ko‘rinishini yo‘qotgan, qayta qurilgan, ularning atrofi ham o‘zgargan.

Bino va inshootlarning saqlanib qolgan qismi gidga *ko‘rish orqali rekonstruksiyalashni* olib borishga yordam beradi.Ko‘rishdagi taasurotlarga suyangan holda u so‘z orqali ko‘rilayotgan obektni tiklaydi.Verbal rekonstruksiyalashdan tashqari gid “gid portfeli”dagi ko‘rgazmali vositalardan foydalanisha mumkin: o‘tmish rasmlari, kartinalar, sxemalar...

Urush voqealarini, davlat arboblari, madaniyat ustalari yashab, ijod qilgan joylarni ko‘rsatishda ham *ko‘rish orqali rekonstruksiyalash* metodidan foydalanish mumkin. Ushbu metoddan foydalanish giddan obekt haqida keng va to‘liq malumotni talab qiladi. U obektning avvalgi holatini o‘zi aniq tasavvur etishi lozim. Ko‘rish orqali rekonstruksiyalash bilan parallel ravishda gid obrazli hikoya qilish orqali bu obekt bilan bog‘liq voqea, hodisalarni qayta tiklaydi.

Ko‘rish orqali rekonstruksiyalash metodi shahar, uning alohida viloyatlari, korxonalar kelajagini hikoya qilishda ham ishlatiladi(sxema, maket, rasm, chizmalar yordamida).

Voqealarni lokalizatsiyalash metodi- bu tarixiy voqealar yoki biror bir hodisani aynan bo‘lib o‘tganidek, aniq lokal sharoitda ko‘rsatishdir. Tiklanayotgan tarixiy voqea “mana shu yerda”, “shu yo‘nalishda”, “shu joyda” iboralari bilan ifodalanadi. Voqealarni lokalizatsiyalash metodi ko‘rish orqali rekonstruksiyalash metodi bilan birgalikda ishlatiladi. Masalan, aynan mana shu stolda Sadridin Ayniy o‘tirib, o‘zining o‘chmas asarlarini yaratgan, deb gid yozuvchi stolini ko‘rsatadi. Yoki «mana shu minora teppasidan jinoyatchilarni tashlab yuborib qatl etishgan» deb Ichan-qal’adagi qatl minorasini ko‘rstish mumkin.

Ko‘rganlarni taqqoslash metodi - bu ko‘rilayotgan obektni boshqa obektlar bilan taqqoslashdir. Bu yerda obektning ham o‘xshash tomonlari va ham o‘ziga xos xususiyatlari taqqoslanadi. Taqqoslash so‘zda, ko‘rganlarda va hatto xayolan bo‘lishi mumkin. Masalan, boshqa shaharlarda joylashgan mashhur obektlar bilan taqqoslash. Taqqoslash ifodali bo‘lishi kerak, shundagina sayyohlar uni eslab qolishadi.

Taqqoslash metodini qo‘llash sayyohlarga masalan, obektning o‘lchami, shakli, rangi va boshqa xususiyatlarini konkret tasavvur etishga imkon beradi.

Taqqoslash bilishning universal vositasidir. K.D.Ushinskiy shunday degan «Dunyodagi barcha narsani biz taqqoslash orqali bilib olamiz. Oldimizda yangi predmet tursayu, biz uni biror narsaga tenglashtira olmasak, farqlay olmasak, biz bu predmet haqida hech narsa deya olmasdik».

“Gid portfeli”dagi ko‘rgazmali vositalarni ko‘rsatish metodik usuli yordamida ekskursiya jarayonidagi ko‘rish qatorida paydo bo‘ladigan «bo‘shliqlar» to‘ldiriladi. Bu vositalar ekskursiya obektlari joyini olmaydi, ular qo‘shimcha o‘rganish manbai hisoblanib, aniq voqealar, tarixiy hodisalarni qayta tiklashga yordam beradi. Bu metod ko‘rish orqali rekonstruksiyalash va voqealarni lokalizatsiyalash metodlari bilan birlashab ketadi (buzilib ketgan madrasa, masjidning oldingi rasmlari ko‘rsatiladi. Masalan, Imom al-Buxoriy madrasasi). So‘zli rekonstruksiya qanchalik kuchli bo‘lmasin ko‘rgazmali vositalarsiz obektni tasvirlash qiyin bo‘ladi.

Geografik ekskursiyalarda paleontologik namunalar ko'rgazmali vosita sifatida ishlatiladi. Namunalarni oldindan saralab, keyin material tayyorlash kerak(fauna, flora).

Ob'ektni unga o'rnatilgan memorial taxta bilan ko'rsatish metodik usuli ham ekskursiyada ko'p ishlatiladi. Avval obektning o'zi ko'rsatilib, tahlil qilinadi. Qo'shimcha vositalar sifatida ko'rish orqali rekonstruksiyalash metodidan foydalanish mumkin(ekskursiya obekti o'zgarishlarni boshdan kechirgan bo'lsa). Keyinchalik esa voqealar xotirlanib, memorial taxta qo'yilganligi aytib o'tiladi. Memorial taxta haqida hikoya qilish kerakmi, yo'qmi mutaxassislarning fikri har xil. Buni gid ekskursiya jarayonida vaziyatdan kelib chiqqan holda hal qilishi lozim.

Ob'ektni avtobus harakati paytida ko'rsatish. Avtobusli ekskursiya hozirda eng ko'p tarqalgandir. Gid obektlarni harakatda shunday hikoya qilib berishi kerakki,ular sayyohlar xotirasiga muhrlanib qolsin.Bu albatta oson ish emas. Ob'ektlar sayyohlar nazaridan sanoqli soniyalarda o'tib ketadi, shuning uchun ularning etiborini oldindan jalb qilish zarur. Sayyohlar obektni ko'rishidan avval, u haqida umumiy malumotlarni oldindan berib borish kerak.Ob'ektni nimalar atrofida ko'rishlarini, uning asosiy belgilarini aytib, sayyohlarni tomosha qilishga yo'naltirish lozim. Bu yerda ekskursiyaning "ko'rsatishdan xikoya qilishga" qonuni buzilgandek ko'rinadi. Lekin bu ekskursiya amaliyotidagi kam uchraydigan holatlar va gid bunday paytda zaruriy ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Panoramali ko'rsatish- bu sayyohlarga aniq bir nuqtadan bir nechta obektlarni umumiy tanishtirishdir. Panoramali ko'rsatish asosan tabiat yon bag'rida tashkil etilgan ekskursiyalarda foydalaniladi. Masalan, tog'larda maxsus shunday ekskursiyalar rejalashtiriladiki, u bir nuqtadan tog'lar cho'qqisi zanjiri ko'rinadigan joylarga tugaydi.

Obektning oldida harakatlanish- memoriy ansamblarni, maydonlarni, tabiat komplekslarini tomosha qilishda foydalaniladi. Bu sayyohlarga obektning

alohida xususiyatlarini yaxshilab o'rganish imkonini beradi. Bazida buni bir nuqtadan qilish qiyin bo'ladi.

Obekt oldida harakatlanish sayyohlarga o'sha davr voqealariga qatnashayotganlik hissini beradi.

Ekskursiya xizmatlari hikoyasining mohiyati. Hikoya qilish ham namoyish, ko'rsatish kabi ekskursiya jarayonining asosiy qismidir. Ular yordamida ekskursiyaning mavzu, maqsad va vazifalariga mos obektlar haqida malumotlar beriladi. Hikoya qilish jarayoni ko'rsatishning ajralmas qismidir va unga bo'y sunadi, aynan shu bilan ekskursiya maruzadan farq qiladi.(maruzada illyustrativ materiallar ko'rsatish shart emas).Shuni yodda tutish kerakki, ekskursiya obetlari haqida asosiy taasurotlarni, uning tarixiy, madaniy voqealar bilan bog'liqligini sayyohlar aynan hikoya qilish orqali bilib oladilar. Hikoya ham marshrutdan tashqari va aniq obektlarsiz mavjud bo'lmaydi.

Hikoya induktiv metod asosida yaralishi mumkin, yani xususiylikdan umumiylikka, kuzatuvdan xulosaga. Yoki deduktiv- yani umumiylikdan xususiylikka. Ekskursiya amaliyotida ko'pincha induktiv metoddan foydalaniladi, yani ko'rish obektini tahlil qila turib, gid umumiy xulosalarga keladi.

Ekskursiya maqsadiga erishish mavzularning to'liq yoritilishi hikoya qilishning to'g'ri tanlangan metodik usullariga bog'liq. Bu usullar *ekskursiya malumotlari, oldindan sharhlash, tasvirlash, tushuntirish, sitatalardan foydalanish, adabiy montaj.*

Ekskursiya malumotlari- obektlar haqida lo'nda, aniq karakteristikasi, faktlarning to'plamidir. Malumotda obekt haqida faqat asosiy faktlar beriladi: nomi, qurilgan yili, muallifi, o'lchamlari...

Hikoya qilishning bunday metodik usulidan mazkur obekt ekskursiya jarayonida ikkinchi darajali obekt bo'lsa, foydalaniladi(sharhli, ko'prejali ekskursiyalarda).

Oldindan sharhlash- hikoya qilishning bunday metodik usuli sayyohlar boy, qiziqarli ekskursiya obektlari to'plangan joyda kelib qolganlarida

ishlatiladi. Bu yerda obektlar shunchalik ko'pki sayyohlar u haqda tezroq bilishni istaydilar (Xivadagi Ichan-hal'a, Samarqanddagi al-Buxoriy majmuasi, Moskvadagi Qizil maydon). Bunday paytda gid obektning nomi va u haqda qisqacha malumot berishi kifoya(bu obekt texnologik haritaga kiritilmagan bo'lishi ham mumkin). Bu bilan u sayyohlarning qiziquvchanligini (lyubopitstvo) tinchlantirib, marshrut bo'yicha yana obektlarni hikoya qilaveradi.

Tasvirlash- bu obekt haqida to'liq ma'lumotlarni hikoya qilish, uning asosiy xususiyatlari va sifatlarini sanab o'tish, ob'ekt bilan bog'liq asosiy voqealarni tasvirlashdir. Masalan, yana shu "Ostankino" minorasini endi tasvirlab beramiz:

Minoraning har xil qavatlarida tomosha qilish maydoni qurilgan va u yerga tezyurar liftda chiqish mumkin. Eng yuqori maydonchaga chiqish uchun 80 soniya vaqt kerak. 320 metrli balandlikda minorani uch qavatli "Sedmoye nebo" restorani halqasi qamrab olgan. Restoran minora atrofida sekin aylanadi.

Tinch, osuda havoda minora tayanch nuqtadan 2 metrgacha har tomonga og'ishi mumkin. Qattiq shamolda esa, og'ish 13 metrgacha boradi. "

Obektni tasvirlash metodidan masalan, avtobusli ekskursiyada, sayyohlar avtobusdan tushmaganlarida foydalaniladi. Tasvirlash 2-3 daqiqadan oshmasligi kerak.

Tushuntirish- bu metodik usul yordamida obektning ichki xususiyatlari oydinlashtiriladi, biror-bir hodisa, fakt sababi aniqlashtiriladi, chuqur tahlil qilinadi.

Masalan, yana o'sha "Ostankino" minorasini olsak. Ekskursiyada bu asosiy ob'ekt bo'lsa, gid o'z hikoyasida quyidagi ma'lumotlarni ham kiritishi mumkin: Minoraning maxsus konstruksiyasi tufayli uning mustahkamligi taminlangan. Bu mustahkamlik shuni hisobidanki, minora asosi tagida suzuvchi grunt stobilat yotibdi va o'ziga xos tayanch plita unga minoraning katta bosimini bir maromda taqsimlaydi."Ostankino" minorasi beton stvollarining mustahkamligi unga ishlatiladigan 10000 ta qo'rg'oshimli(stal)trosslar bilan armaturalangan konstruksiyasi hisobidandir.

Izohlash- ishlab chiqarish jarayonida, obekt namoyish etilayotganda bu metoddan foydalaniladi. Masalan, ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etilgan ekskursiyalarda yig'ish sexida ishlayotgan konveyerlar(traktor,kombayn, avtomobil yig'ish sexida) harakati kuzatilayotganda gid qisqa malumotlar yordamida guruh kuzatayotgan jarayonni izohlaydi. Barcha etibor obekt, hodisa, voqealarning maxsus xususiyatlariga qaratilishi shart.

Sitatalardan foydalanish- tarixiy voqealarni yorqin ifodalash, sayyohlar ko'z oldida obrazlar, hodisalarni jonlantirish maqsadida tarixiy hujjatlar, adabiy asarlardan qisqa bir parchani matnga kiritishdir. Sitata qisqa, lo'nda , aniq, kerakli joyda va vaqtda ishlatilishi shart. Sitatalardan meyoridan ortiq foydalanish ham noto'g'ri, sayyohlar gidning mavzu bo'yicha shaxsiy fikri yo'q deb o'ylashadi.

Sitatalarni 10x15 sm o'lchamli kartochkalarga yozish kerak. Bu ayniqsa, yangi mavzu bo'yicha ekskursiya ilk marotaba olib borilayotgan bo'lsa. Gid sitatani to'liq qog'ozga qarab o'qimasligi, eshituvchilarga qarashi va har zamondagina qog'ozga ko'z tashlashi mumkin.

Adabiy montaj- bu hikoya qilishning murakkab metodik usulidir.Unda bir yoki bir necha mualliflar badiiy asarlaridan, xotira daftarlaridan, hujjatlardan, maqolalardan parchalar tanlanadi va gid undan voqealar yoki mashhurlar obrazini qayta tiklashda foydalanadi.

Tanlangan parchalardan tayyorlangan matn mano va badiiy jihatdan yaxlit bo'lishi kerak. Sayyohlar nima haqida gap ketayotganini, voqealar dinamikasini his etishlari muhimdir.

Adabiy montaj usuli adabiy va tarixiy mavzuli ekskursiyalarda qo'llaniladi. Gidlar bu usuldan kam foydalanadilar, chunki bu usul ulardan adabiyot va tarixni yaxshi bilishlarini, artistlik qobiliyatini talab qiladi.

Ekskursiya olib borishning maxsus metodik usullari. Yuqorida ko'rib chiqilgan metodik usullar ekskursiyani olib borishning asosiy usullari hisoblanadi, lekin ular hammasi emas. Gid qanchalik malakali bo'lsa, ekskursiya

maqsadiga erishish uchun u shunchalik ko'p metodik usullardan foydalanadi. Bunday samarali usullar quyidagilar:

Voqea qatnashuvchilari bilan uchrashuv- bunda yozuvchilar, shoirlar, olimlar, mehnat va urush qahramonlari jalb etiladi. Uchrashuvlar ekskursiyani bezaydi va uni yanada qiziqroq bo'lishiga olib keladi. Lekin bunday uchrashuvlar mantiqan asoslangan va yaxshi tayyorgarlik ko'rilgan, ko'riladigan savollar aniq belgilangan bo'lishi kerak. Uchrashuvlar albatta, ekskursiya mavzu va maqsadiga mos bo'lishi, uning tarkibiy qismiga aylanishi lozim. Uchrashuvga taklif qilinganlar chiqishi uzoqqa cho'zilmasligi va gid bergan malumotlarni qaytarmasligi zarur.

Uchrashuv paytida qo'llaniladigan metodik usul bu suhbatdir. *Suhbat*-taklif etilgan mehmonning kichik chiqishidan so'ng boshlanadi. Suhbat murakkab metodik usuldir va agar u gid tomonidan boshqarib borilmasa, kutilgan natijani bermasligi va hatto ekskursiya jarayonini buzishi mumkin.

Ovoz yozish tasmalarini eshitish- bu metodik usulni gidlar o'z tajribalarida tez-tez qo'llaydilar. Mashhur yozuvchi, shoir, bastakorlar hayoti va ijodiga bag'ishlangan adabiyot va sanat mavzusidagi ekskursiyalarda, ular yashab, ijod qilgan joylar tomosha qilinayotganda asarlaridan parchalar qo'yib eshitiladi. Lekin bu ham uzoq davom etmasligi va mantiqiy davomiylikni buzmasligi kerak.

Rituallardan foydalanish metodida sayyohlar urush bo'lib o'tgan joylarni, qabristonlarni, muqaddas olovni ziyorat qilganlarida bir daqiqa sukut saqlab, u yerga gullar qo'yadilar, motamsaro kuylar eshitadilar, posbonlar harakatini kuzatadilar, halok bo'lganlarni xotirlaydilar.

Bu ritual o'zining tarbiyaviy ahamiyatiga ega bo'lishi uchun gid guruh bilan oldindan tushuntirish ishlarini olib borishi kerak. Gid sayyohlarga bu marosimning muhimligini ishontirsagina uni o'tkazish mumkin.

Tadqiqot metodidan gidlar bolalar, yoshlar guruhi bilan ishlaganda foydalanadilar. Bu yerda guruh bilan kichik tadqiqot ishlarini olib borishiga to'g'ri keladi, natijada esa gid aytganlari tasdiqlanishi kerak. Masalan, botanika

bog'ida daraxt halqalarini sanab chiqish orqali uning yoshini aniqlash. Daryodagi suv oqimi tezligini oddiy cho'p bilan hisoblash.

Yemelyanov o'z kitobida tadqiqot usuliga quyidagi misolni keltiradi: Armanlarning yodgorligi hisoblanmish Zvartnots cherkovida tadqiqot usulidan foydalanish mumkin. U yerda joylashgan quduqlar chuqurligini yoqilgan qog'ozni tashlash orqali bilish mumkin. Yorug'likda quduqning devorlari ham ko'rinadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etilgan ekskursiyada ham bolalar korxonada malum vaqt mobaynida necha turdagi mahsulot ishlab chiqilayotganini kuzatadilar. Bu usul sayyohlarni faolroq bo'lishga undaydi va shu bilan ekskursiya qiziqarliroq o'tadi.

Savol-javob metodik usuli bu auditoriya etiborini jalb qilish maqsadidagi maxsus notiqlik (oratorlik) metodidir. Gid nutqi ham rasmiy chiqishlar tarkibiga kiradi va o'zining maxsus xususiyatlariga ega. Har bir notiqlik nutqi eshituvchilarga chiqish mavzusini anglashga, o'rganishga qiziqish uyg'otishi kerak. Ekskursiya mazmuni qiziqarli bo'lsagina u eshitiladi. Ammo notiqlik sanati qanchalik qiziqarli bo'lmasin baribir odamning eshitish qobiliyati asta-sekin pasayadi. Buni gid ham juda yaxshi biladi. "Zaiflashgan etibor" bilan kurashish uning asosiy vazifasidir. Gid diqqat etiborni saqlab qolish yo'llarini mohir notiq sifatida bilishi kerak. Diqqat e'tiborni aktivlashtirish yo'llaridan biri bu savol-javob usulidir.

Diqqat (e'tibor) krizisi va uni bartaraf etish yo'llari. Diqqat qilish - bu odam ruhiy faoliyatini yo'naltirish va shaxs uchun biror ahamiyatga ega ob'ektga fikrni jamlashdir. Ekskursiya materiallariga sayohlarning diqqatini jalb etish uchun gid ularning fikrlash faoliyatlarini to'g'ri yo'naltirishi kerak. Ekskursiya mavzusi dolzarb, namoyish ob'ektlari va hikoya uyg'unlashgan, mazmunli, tushunarli, yangiliklarga boy bo'lsa, sayyohlar diqqati barqaror bo'ladi. Hatto qiziqarli axborot ham ko'p bo'lsa, diqqat krizisiga olib keladi. Gid bu jarayon bilan kurashishni o'rganishi kerak.

Lekin qachon gid hikoyasining qaysi daqiqalaridan diqqat krizisi boshlanadi? Ekskursiya olib borish bilan bog'liq bunday ilmiy tadqiqotlar no'malum. Har bir gid o'z tajribasida diqqat krizisi muammosi bilan to'qnashadi. Uning davomiyligi ko'pgina sabablarga bog'liq: barchaga ma'lum eskirgan ma'lumotlar; gid nutqida obrazlilik va his-hayajonning yo'qligi; namoyish bilan hikoyada o'rtasida bog'liqlikning yo'qligi; guruh xususiyatlari(yoshi, millati) gid tomonidan o'rganilmaganligi...

Diqqat krizisi boshlanish vaqti haqidagi ma'lumotlarni ma'ruza metodikasi ishlaridan olish mumkin. Auditoriya oldidagi notiqlik chiqishlari xususiyatlarini tadqiqoti shuni ko'rsatmoqdaki, eshituvchilardagi birinchi diqqat krizisi maruzaning 14-18 daqiqasida, ikkinchisi birinchisidan so'ng 11-14 daqiqada, uchinchisi 9-10 daqiqadan so'ng, to'rtinchisi 8-9 daqiqadan va keyinchalik diqqat krizisi orasidagi interval qisqarib boraveradi. (Har 4-5 daqiqada). Birinchi ko'rsatkich yosh auditoriyaga, ikkinchi yoshi katta auditoriyaga tegishlidir.

Bu ma'lumotlardan gidlar ham foydalanishlari mumkin. Ular shubhasiz notiqalar kategoriyasiga kiradilar. Lekin bino ichida o'qiladigan ma'ruzalardan farqli ravishda ekskursiya jarayoniga tashqi muhit, shovqin va boshqa omillar gidlarning ishini murakkablashtiradi.

Ekskursiyada ekskursiya ob'ektlari, tashqi fon o'zgarib turadi, bu esa sayyohlar diqqat e'tiboriga yaxshi tasir ko'rsatadi. Lekin materialni hikoya qilish jarayoni tanaffuzsiz, bir ob'ekt oldida 10-15daqiqa davom etsa, yoki avtobusda harakatlanayotganda atrof-muhit o'zgarishsiz bo'lsa, diqqat krizisi boshlanadi. Diqqat krizisning birinchi alomatlarini obekt oldida hikoya boshlashdan so'ng 4-5 daqiqalarda aniqlash mumkin: Sayyohlar bir-biriga savol bilan murojaat qiladi; hikoyaga e'tibor pasayadi(buni ko'z qarashlardan anglash mumkin); ba'zilar guruhdan chetlashib ob'ektni o'zlari tomosha qiladilar.

Diqqat krizisini yengib o'tish va sayyohlar diqqatini yuqori darajada saqlash, guruh faolligini oshirish uchun gidlar oldindan psixologik – pedagogik

usullar o‘ylab chiqarishlari kerak. Sayyohlar diqqatini saqlab qolish uchun quyidagi metodik usullar tavsiya etiladi.

Birinchi va eng asosiysi – ekskursiya ob’ektlarini ko‘rsata olishdir. Metodik ko‘rsatmalarga muvofiq 3 soatlik shahar ichidagi avtobusli sharhli ekskursiyada 10-15 tagacha asosiy obektlar kiritish mumkin. Shundan kelib chiqib har bir ob’ekt hikoyasiga 4-5 daqiqa vaqt sarflanadi, demak ekskursiya ishiga shu vaqt *me’yor* sifatida qabul qilinadi.

Namoyish etish sayyohlar diqqatini faollashtirishga samarali rol o‘ynashi uchun u konkret, obrazli, faol, mantiqan ketma-ket, mavzuni yoritishga yordam berishi kerak.

Diqqat krizisini bartaraf etishga tavsiya etiladigan yana bir vosita bu «gid portfeli» dagi ko‘rgazmali vositalardir. Marshrut uchastkalarida ob’ektlar kam bo‘lganda va gid 10-15 daqiqadan ziyod gapirayotganida, ulardan foydalanish ayniqsa, juda muhimdir. Ko‘rgazmali vositalar qariyb barcha ekskursiyalarda mavjuddir. Ko‘rgazmali vosita sayyohlar diqqatini jalb qilib, hikoyaga qiziqish uyg‘otadi. Endi ular eshitish orqali qabul qilishdan, ko‘rish orqali qabul qilishga o‘tadilar va ekskursiya materiallarini yanada faolroq qabul qiladilar.

Ekskursiya matniga diqqat qilish krizisini bartaraf etishda ekskursiyaning u yoki bu qismida yorqin faktlar qiziqarli epizodlarni kiritish tavsiya etiladi. Hikoyada taqqoslash uchun raqamli materiallardan foydalanilsa, yaxshi samara beradi (Moskva 800 yillik, Marg‘ilon 2000 yillik, Samarkand esa, 2750 yillik tarixga egadir). Bunday taqqoslash ifodali eshitiladi va sayyohlar tomonidan yaxshi qabul qilinadi.

Diqqat etiborni saqlab qolish maqsadida qo‘llaniladigan yorqin faktlar, aniq misollar ekskursiya tarkibiga mantiqan kirishib ketishi, mavzudan chiqib ketmasligi kerak. Faktlar me’yoridan ziyod yoki mavzu bilan bog‘lanmagan bo‘lsa, ekskursiyaga bo‘lgan qiziqishni so‘ndiradi. Bunga ekskursiya matnini tuzishda, albatta e’tibor berish zarur.

Diqqat krizisini bartaraf etishning yana bir usuli bu hikoyalarda latifa, hazillardan foydalanishdir. Latifa aqliy va jismoniy bosimni bartaraf etadi.

Kulgu, latifaning yana bir yaxshi tomoni, u guruh va gid o'rtasidagi muhitni iliqlashtiradi, ishonch uyg'otadi. Lekin gid shuni yodda tutishi kerakki, eshituvchilarni atayin kuldirish, mavzuga mos kelmaydigan latifa aytishga harakat qilishi noto'g'ridir. Diqqatni faollashtirish uchun hazilni qo'llayotganda u me'yorida va madaniyatli bo'lishi kerak.

Ekskursiyani olib borish texnikasi. Har bir ekskursiya samaradorligi nafaqat tanlangan ob'ekt, ishlab chiqilgan marshrut, gid bilimiga, balkim ekskursiyani olib borish texnikasiga ham bog'liq. Ekskursiya jarayonidagi tartib, materiallarni qabul qilish uchun yaratilgan sharoitlar aynan texnikaga bog'liq. Ekskursiyada jarayonida uni olib borish texnikasi gid professional ustaligining tarikibiy qismi bo'lib, uning ekskursiya guruhini boshqarishdagi rahbarlik mahorati amalda sinaladi.

Ekskursiyani *olib borish texnikasiga* quyidagilar kiradi:

- * gidni guruh bilan tanishishi;
- * sayyohlarning avtobusdan tushishi;
- * avtobusdan ob'ektgacha bo'lgan harakat;
- * guruhning ob'ekt oldida joylashishi;
- * avtobusga qaytish;
- * texnologik sxemaga mos ravishda ekskursiya rejasiga amal qilish;
- * sayyohlar bilan savol-javob o'tkazish;
- * ekskursiya jarayonida individual matndan foydalanish;
- * «gid portfeli» va ovoz yozish tasmasidan foydalanish;
- * mikrofon bilan ishlash.

Gidni guruh bilan tanishishi. Gid guruh yoniga borib, yoki avtobusga kirib, eng avval guruh bilan tanishishi kerak. Shu maqsadda salomlashib, o'zining familiya, ismi, sharifi, ekskursiyani tashkil etgan turfirma nomini va avtobus haydovchisini tanishtiradi. Keyin ekskursiya mavzusini e'lon qilib, sayyohlarni marshrutga qiziqtirish uchun bir necha mashhur yodgorliklar va joylarini sanab

o'tadi, marshrutni qisqacha harakterlaydi, uning davomiyligi, boshlanish va tugash vaqti, joyini e'lon qiladi.

Avtobusda gidning o'rni. Chiqish so'zini gid salonning oldingi qismida sayyohlarga qaragan holda tik turib so'zlaydi. (avtobus harakatlanishidan oldin). Keyin o'ng tarafdagi birinchi qatorda, o'z ish joyiga o'tirib, yo'l-yo'lakay sayyohlar chap va o'ng tomonlarga nimalarni ko'rayotganlarini hikoya qilib boraveradi.

Avtobusdan tushish va sayyohlarning keyingi harakati. Ob'ektni kuzatish uchun belgilangan to'xtash joyiga birinchi bo'lib gid tushadi, avtobus oldidan chetroqqa o'tib, guruhni kutadi. Avtobusdan ob'ektgacha, ob'ektdan ob'ektgacha va ob'ektdan avtobusgacha bo'lgan harakatlar birdamlikda amalga oshiriladi. Gid o'rni guruh boshida bo'ladi. Gid guruh harakatini kuzatishi, tarqalishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Guruh boshi va oxiri o'rtasidagi masofa 8 - 10 metrdan oshmasligi lozim. Gid guruh harakati tezligi(tempi) ekskursiya yaxlitligini buzmasligiga erishishi zarur.

Guruh harakati tezligi uning tarkibiga (bolalar, yoshlar, o'rta yosh, yoshi katta), joy relefiga (toqqa chiqish), yo'llar ahvoliga (tabiat qo'ynida tashkil etilgan ekskursiyalar), ishlayotgan sehlaridagi xavfli zona va boshqalarga bog'liq. Piyoda ekskursiyada, yoki ekskursiyaning piyoda qismida harakat tezligi osoyishta, sekin bo'ladi.

Uzoq vaqtli shahar va shahar tashqarisidagi ekskursiyada sanitariya to'xtash yoki suvenirlar olish uchun to'xtash tashkil etilgan hollarda, gid ekskursiya davomiyligi va avtobus to'nash vaqti soati va daqiqasini aniq e'lon qilishi shart.

Guruhning ob'ekt oldida joylashishi. Guruhning ob'ektlar oldida joylashishi eng avvalo ularning xavfsizligini ta'minlash kerak. Ayniqsa bu ob'ekt yonida qurilish ishlari olib borilayotganda, transport harakatlanayotganda, ishlab chiqarish sehlarida, tabiat yon bag'rida tashkil etilgan ekskursiyalarga tegishlidir. Ekskursiyani tuzgan ijodiy guruh tomonidan bitta ob'ektni ko'rib chiqish uchun, ikkita va hatto bir nechta nuqta belgilanishi

mumkin. Hammasi ekskursiya marshrutiga bog‘liq. Masalan: uzoq nuqta ob‘ekt atrof-muhit bilan birga ko‘rsatilganda tanlanadi. Yaqin nuqta bino, inshoot, tabiat ob‘ektlarining alohida detallari tahlil qilinadi va tanlanadi. Ekskursiyaning texnik haritasida guruhning barcha joylashish nuqtalari, ko‘rsatilishi shart. Nuqta tanlanganda sutka vaqti va yil faslini, mavsumini hisobga olish zarur. Yozning issiq kunlarida guruhni soya joyga joylashtirish kerak, quyosh nurlarini tomosha qilishga halaqit bermasligi uchun. Yomg‘ir paytida panaroqqa joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Ob‘ekt oldida guruhning eng qulay joylashish varianti bu yarim aylana shakldir. Gid shu yarim aylananing bir chekkasida sayyohlarga yarim o‘girilgan holda turadi. Gid qo‘l harakatlari bilan ko‘rsatib sayyohlarni shunday holda turishlarini iltimos qiladi. Ekskursiya amaliyotda gid shu yarim aylangan o‘rtasida turadigan hollari ham uchraydi. Bunday holatda gid hikoyasini barcha sayyohlar eshitadi, ovozni ko‘p baland qilish ham shart emas, lekin ob‘ektga orqa tomoni bo‘ladi, bu esa gidning qo‘l bilan ko‘rsatishlari hamma vaqt ham to‘g‘ri yo‘nalishda bo‘lishini ta‘minlamaydi.

Agar ob‘ekt oldida bir vaqtning o‘zida bir nechta guruh joylashgan bo‘lsa, ular orasida shunday masofa saqlash kerakki, o‘z hikoyalari bilan gidlar birbirlariga, guruhlar esa tomosha qilishiga. halaqit bermasinlar,

Guruhning avtobusga qaytishi. Avtobusga avval sayyohlar, so‘ngra gid chiqadi va hamma o‘z o‘rnini egalladimi, qiziqadi. Sayyohlarni sanab chiqish tavsiya etilmaydi. Tadbir qatnashchilarining hammasi joylashishga ishonch hosil qilgach haydovchiga harakatni boshlashini ishora qilishi mumkin.

Ekskursiya olib borish vaqtiga amal qilish bu gid bajarish lozim bo‘lgan shartdir. U texnik haritadagi barcha talablarga aniq rioya etishi kerak. U yerda har bir mavzuga ajratilgan vaqt daqiqasigacha ko‘rsatiladi. Belgilangan vaqtga rioya qilish gid professional ustaligi darajasi bilan bog‘liq va undan katta amaliy tajribani talab etadi. Lekin gidga bog‘liq bo‘lmagan sabablar tufayli ekskursiya vaqti qisqaradi (kechikkan avtobus, vaqtida yig‘ilmagan guruh...). Shunda gid ba‘zi mavzularga ajratgan asosiy mazmun va mavzularni saqlagan holda,

ko'rsatish va hikoyalardagi ikkinchi darajalarini olib tashlab ekskursiyani olib borish zarur. Ekskursiyani olib borish jarayoni ko'pgina tashqi omillarga ham bog'liq, shuning uchun gid ba'zi materiallarni qisqartirishga tayyor bo'lishi va buni sayyohlarga bildirmay amalga oshirish muhimdir.

Ekskursiyalarda tanaffus – asosiy tarkibiy qismi bo'lib, oldindan rejalashtiriladi. Ular marshrut bo'yicha, mavzuga bog'liq namoyish ob'ektlari mavjud bo'lmaganda, ekskursiyalarda maqsadlidir. Bunday tanaffuslar maqsadi – sayyohlar hikoyadan dam olishadi va bir-birlari bilan qiziqarli faktni muhokama qilishadi. Yana sayyohlarga ekskursiya ob'ektlarini mustaqil aylanib chiqishlari uchun tanaffus beriladi, bu ularga mavzuni yanada chuqurroq anglashiga yordam beradi. Tanaffus paytida gid sayyohlar harakatini ohista yo'naltirishi zarur.

Kutilmagan hodisalarga reaksiya. Ekskursiya jarayonida kutilmagan hodisalar har xil bo'ladi: shovqinli to'y marosimi, tez o'tib borayotgan yong'in o'chirish mashinasining sirenasi, birdaniga paydo bo'lgan itlar to'dasi va boshqalar albatta sayyohlar e'tiborini tortadi. Bunday paytlarda gid o'zini qanday tutishi kerak? Eng avval ko'rmayotganga olmasligi lozim. Yaxshisi ekskursiyani to'xtatib, tasodifiy hodisalar tinchib ketmagunicha yoki guruhning unga qiziqishi pasaymaguncha kutishi kerak. Bo'lib o'tayotganlarga gid qisqacha ma'lumot bersa ham yaxshi bo'ladi. Masalan: to'ylar soni, to'ydagi eng qiziqarli voqealar haqida. Kutilmagan holatlarni to'g'ri qabul qilib, ekskursiya mavzusini yoritishga yordam bermasada, hodisani ekskursiyaning qo'shimcha ob'ekti sifatida qarash lozim.

Sayyohlar bilan savol-javoblar. Ekskursiya jarayonida qatnashchilarga savol tug'ilishi tabiiy. Agar unga tezda javob berilsa bu ekskursiya ketma-ketligini buzib auditoriya diqqatini ekskursiyaning asosiy mazmunidan jalg'itishi mumkin. Gid avtobusdagi chiqish so'zida yoki hikoyani boshlashidan avval tug'iladigan savollarga u ekskursiya oxirida javob berishi haqida sayyohlarni ogohlantirishi kerak va u shu pozitsiyaga amal qilishi lozim. Agar

namoyish adresli, materiallar chuqur tahlil qilingan, faktlar aniq, xulosalar mantiqiy bo'lsa, savollar va tushunmovchiliklar paydo bo'lmaydi.

Ekskursiya jarayonida individual matndan foydalanish. B.V.Yemelyanov individual matndan foydalanish bo'yicha qo'yidagicha tavsiyalarni beradi:

«Gid ma'ruzachi kabi o'zining individual matnidan foydalanishi mumkin. Shuning uchun hikoyaning asosiy mazmunini maxsus kartochkaga ko'chirish tavsiya etiladi. Kartochkada ob'ekt haqida ma'lumotlar, hikoyaning asosiy mazmuni, yodgorlik tahlili sxemasi, sitatalar, tarixiy sanalar, raqamli materiallarning qisqacha mazmuni sharhi yoziladi.

Kartochkadan foydalanishning bir xususiyati mavjud. Ekskursiya jarayonida gid hamma matnni o'qimaydi, faqatgina unga qarab hikoya mazmunini aniqlashtiradi. Shahar va ayniqsa shahardan tashqaridagi ekskursiyalar tanaffusi paytida u kartochkani ko'rib chiqib, hikoya materiallarini xotirasiga qayta tiklaydi. Kartochkalar ekskursiya jarayonida foydalanish uchun qulay bo'lishi kerak. Ularning tavsiya etilgan o'lchami A4 formatli qog'ozning to'rtidan bir qismi yoki yarmi. Adashmaslik uchun kartochkalarni raqamlab chiqish zarur. Ekskursiyada individual matn yozilgan kartochkadan foydalanish har bir gidning o'z huquqidir(malakasi, bilimidan qat'iy nazar)».

Mikrofondan foydalanish. Ekskursiya muvaffaqiyati ko'p hollarda mikrofondan ham bog'liq. Avtobusdagi mikrofondan foydalana olmaslik, nosoz mikrofon gid tayyorgarligini puchga chiqaradi. Shuni yodda tutish kerakki, kuchaytiruvchi vosita orqali eshitilayotgan ovoz tembri ko'pincha tushunarsiz va xirillab chiqishi mumkin. Ba'zida t, p, s, sh, ch harflarida ortiqcha jarang paydo bo'ladi.

Mikrofondan foydalanishda yuzaga keladigan kamchiliklarni qo'yidagicha bartaraf etish mumkin: a) aniq artikulyatsiya; b) nutq tezligini pasaytirish; v) mikrofonni ovoz havosi bosimiga bir maromda saqlab turish kerak.

1.2.2-jadval. Har bir mavzu uchun zarur bo'lgan hujjatlar.

№	Hujjatlarning nomlanishi	Hujjat mazmuni
1	Mavzu bo'yicha adabiyotlar ro'yxati	Ekskursiyani tayyorlashda ishlatilgan kitoblar, brashuralar, ro'yxatdan o'tkaziladi
2	Marshurt tarkibiga kiruvchi obyektlar kartochkasi(pasporti)	Ekskursiya obyektini xarakterlovchi ma'lumotlar. Haykalning ko'rinishi, uni nomlanishi, qaysi voqealar bilan bog'liqligi, joylashishi, obyektning yaratilish vaqti va muallifi va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan manbalar.
3	Ekskursiya nazorat matini	Matn ham xronologik tartibda va ham ekskursiya obektlarining marshrut bo'ylab joylashganligiga qarab tuzilishi mumkin, yani, mavzular yoritilishi ketma-ketligiga qarab.
4	Ekskursavodning individual matini	Bu hikoya qilib berishga tayyor ekskursiya mahsulotidir,yani ekskursiya hikoyasi uchun matndir. Ob'yektlar va voqealarga tavsif beradi.
5	Marshurt sxemasi(kartasi)	Alohida varaqda gurixning borish yo'llari ko'rsatilgan bo'ladi. Yo'nalishning boshlanish va tugash joyi, obyektlarni ko'rsatish, ularni kuzatish uchun joylar, obyekt oldida to'xtash va chiqish joylari uchun ko'rsatma.
6	«Gid partfeli»	Namoyish etish, ko'rish qatorlariga yetishmayotgan bo'g'inlarni to'ldirish va tiklash uchun mo'ljallangan ko'rgazmali qurollar jamlanmasiga
7	Mavzu bo'yicha metodik ishlov	U yerda ko'rsatish jarayonida gid etibor berishi lozim bo'lgan obektning konkret detallari, tahlil ketma-ketligi, ko'rsatish va hikoya qilishda qo'llaniladigan metodik usullar tavsiyasi, “gid portfeli” materiallaridan foydalanish bo'yicha maslahatlar, mantiqiy o'tish variantlari, sitatalar uchun materiallar beriladi
8	Ekskursiya materiallari	Mavzu bo'yicha materiallar: referatlar, ma'lumotlar, jadvallar, raqamga oid materiallar, hujjatlardan ko'chirma, nusxalar, adabiy asarlardan matn parchalari
9	Mavzu bo'yicha ekskursiya o'tkazadigan gidlar ro'yxati	Ro'yxatda ekskursiyani olib borishga ruxsat berilgan gidlar ism, sharfi.

1.3. O'zbekistonda ekskursiya xizmatlarini tashkil qilishning tashkiliy-huquqiy asoslari

Har qanday mamlakatda turizmning rivojlanishi, eng avvalo, ushbu sohaga nisbatan davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatning samaradorlik darajasiga bog'liq. Davlat turistik infratuzilmaning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ya'ni me'yoriy-huquqiy asoslarni barpo etish, umuman turizm va uning alohida turlarini rag'batlantirish bo'yicha tegishli tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish, turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar o'rtasida halol raqobat muhitini yaratish, turizmga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasini tartibga olish, turistlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish va kafolatlash orqali ushbu sohaning rivojlanishiga yordam ko'rsatadi.

Sobiq Ittifoq davrida mavjud tuzumning o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy imkoniyatlariga etarli darajada baho berilmasligi tufayli mamlakatimizda turizm sohasi yuqori sur'atlarda rivojlanmadi. Respublikamizning boy tarixiy-madaniy obidalarini va milliy arxitektura namunalariidan turistik ob'ekt sifatida foydalanilmadi. O'z navbatida mamlakatimiz fuqarolari ham jahon turizmi imkoniyatlaridan bahramand bo'la olmadilar.

Mamlakatimizning siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritishi, bozor munosabatlariga asoslangan ochiq iqtisodiyot asoslarining shakllantirilishi turizm sohasini O'zbekiston iqtisodiyotining etakchi tarmoqlaridan biriga aylantirish uchun real shart-sharoitlarni vujudga keltirdi. Biroq respublikalararo xo'jalik aloqalarining buzilishi, inflyatsiyaning yuqori darajasi, murakkab siyosiy vaziyat va boshqa bir qator omillar ta'sirida XX asr 90-yillarining boshlarida turizm tarmog'i boshqa tarmoqlar singari qiyin ahvolga tushib qoldi.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 1992 yilda respublikamizda xorijiy turistlar soni 4-5 barobarga qisqardi, turizm imkoniyatlaridan foydalanish darajasi 6

foizdan oshmadi, bitta xorijiy turistdan olinadigan daromad esa 1 sutkada 12 dollarni tashkil etdi⁴.

Buning ustiga bu davrda xizmatlar ko`pincha pasaytirilgan tariflar bo`yicha “rubllarda” amalga oshirildi. Hisob-kitoblarga ko`ra, 1992 yilda turizm imkoniyatlaridan etarli darajada foydalanmaslik oqibatida respublikamiz 3 mln dollardan ko`proq daromaddan mahrum bo`ldi. Natijada 1992 yilning oxiriga kelib turizmning har ikki ob`ektidan biri zarar bilan ishladi⁵.

Shu munosabat bilan O`zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish ob`ektiv zaruriyatga aylandi. Bozor munosabatlariga asoslangan turizm esa mamlakatimizning turistik imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish uchun zamin yaratadi.

Mustaqillik yillarida dastavval turizm rivojlanishining institutsional va me`yoriy-huquqiy asoslarini yaratishga alohida e`tibor qaratildi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1992 yil 27 iyo`ldagi 447-sonli Farmoniga muvofiq “O`zbekturizm” Milliy Kompaniyasi tashkil etildi. Shuningdek, 1993 yilda O`zbekiston Butunjahon Turistik Tashkilotining a`zosiga aylandi.

Bugungi kunda O`zbekistonda turizm rivojlanishini tartibga soluvchi me`yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi asosini O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik va Soliq Kodekslari, 1999 yil 29 avgustda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining “Turizm to`g`risida”gi Qonuni, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 30 iyundagi “O`zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to`g`risida”gi, 1999 yil 15 apreldagi “2005 yilgacha bo`lgan davrda O`zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to`g`risidagi” Farmonlari, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 3 iyundagi 210-sonli “O`zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infratuzilmasini barpo etish to`g`risida”gi, 1998 yil 8 avgustdagi 346-sonli “Sayyohlik tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni

⁴ Tuxliev N.T., Taksanov A. Ekonomika bolshogo turizma. T.: O`zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2001, s.124

⁵ O`sha manbaa, 25-bet.

takomillashtirish to'g'risida"gi, 2002 yil 2 sentabrdagi 310-sonli "O'zbekiston Respublikasida mehmonxona biznesi va xalqaro turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2003 yil 17 yanvardagi 33-sonli ushbu qarorni qisman o'zgartirish to'g'risidagi, 2003 yil 11 noyabrdagi 497-sonli "Turizm faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi, "O'zbekiston Respublikasida 2010 yilgacha bo'lgan davrda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorlari tashkil etadi.

Respublikamizda turizmni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosiy o'rinni egallaydi. Uning 53-moddasida shunday ta'kidlanadi: «Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi».⁶ Mazkur me'yor barcha xo'jalik yuritish sub'ektlari, shu jumladan, turizm subektlarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi moddalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning katta qismi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni qamrab oladi va tadbirkorlik faoliyatini, shu jumladan, turizm sohasidagi tadbirkorlik rivojlanishini qonuniy jihatdan mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risidagi" qonuni turizm faoliyatini tartibga soluvchi asosiy me'yorlarni o'z ichiga oladi. Unda turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, turistlar va turistik faoliyat sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kabi masalalar o'z aksini topgan.

"Turizm to'g'risidagi" qonunning 3-moddasida turizm faoliyati bilan bog'liq asosiy tushunchalar – turizm, turist, turistik faoliyat, ekskursiya faoliyati, turistik resurslar, turistik faoliyat sub'ektlari, turistik industriya, tur,

⁶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. - 1992. – 11 b.

turistik xizmatlar, turistik guruh rahbari, turistik faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya, sertifikat kabi tushunchalarning ta'riflari keltirilgan. Turizmga oid tushunchalarning bunday aniq tavsiflanishi ko'plab qonunchilik me'yorlarini tadbiq etishni sezilarli darajada yengillashtiradi. Masalan, turistik korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish yoki imtiyozli soliqqa tortish bo'yicha qonunchilik me'yorlarini amaliyotga joriy etishdagi chalkashliklarga barham beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur qonunning 4-moddasida turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan bo'lib, u bozor munosabatlariga o'tishning "o'zbek modeli" tamoyillari bilan uyg'unlashib ketgan.

Ushbu qonunning 8,9 va 10-moddalarida turistik faoliyatni litsenziyalash, moliyalash manbalari va turistik xizmatlarni sertifikatsiyalash tartibi belgilab berilgan. Unga ko'ra turistik faoliyat turistik sub'ektlarning o'z mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslarning pul badallari, zayom mablag'lari, chet el investitsiyalari va qonunda ta'qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi "Turizm to'g'risida"gi qonunning 14 va 15 moddalari alohida e'tiborga molik bo'lib, ularda turistik faoliyat sub'ektlarining huquqlari va majburiyatlari ko'rsatib berilgan. Qonunga muvofiq turist shartnomada nazarda to'tilgan turistik xizmatlar majmuidan to'liq foydalanish, sayohatga taalluqli to'liq va ishonchli axborotlarni olish huquqiga ega. Agar shartnoma bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda turist moddiy zararning to'lanishi, shuningdek, ma'naviy zararning o'rnini qoplanishini talab qilishga haqli hisoblanadi. Ayni vaqtda turist shartnoma shartlariga, bojxona va chegara nazorati qoidalariga, borilgan mamlakatning qonun hujjatlari talablariga rioya etishi lozim.

Turizm rivojlanishining muhim omillaridan biri nafaqat turist, balki turistik faoliyat sub'ektlari tomonidan shartnomada ko'rsatilgan shartlarning to'liq bajarilishi hisoblanadi. Shu munosabat bilan "Turizm to'g'risida"gi

qonunning 16 va 17-moddalari turistik faoliyat sub'ektlarining huquqlari va majburiyatlariga bag'ishlangan.

Bundan tashqari qonunchilikda turistlarni himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, turistlar sog'ligini himoyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, "Turizm to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasi "Turistlarning xavfsizligi kafolati" deb atalib, unda turistlarning xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanishi ta'kidlangan va buning uchun turizm sohasidagi vakolatli davlat organi, manfaatdor vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, turistik faoliyat sub'ektlari mas'ul hisoblanadilar. Ular turistlarning himoya qilinishini va xavfsizligini ta'minlash dasturlarini, turistlar kasallanganda, jarohatlanganda va boshqa hollarda tibbiy va o'zga xil yordam ko'rsatish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqadilar va uning bajarilishini tashkil etadilar.

Qonunning "Turistlarning xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari" deb nomlangan 19-moddasida turistik faoliyat sub'ektlari tomonidan turistlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar majmui ko'rsatib berilgan. "Turistlarni sug'urta qilish" nomli 20-moddasida turistlarni sug'urta qilish majburiy ekanligi e'tirof etilgan.

Turizm sohasining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani e'tiborga molikdir. Xususan, soliq sohasida turistik faoliyat bilan shug'ullanayotgan korxonalar va firmalar uchun bir qator imtiyozlar taqdim etilgan bo'lib, ularni ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga firma va korxonalarining tarmoq xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan imtiyozlar kiradi. Chunonchi, Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida turizm sohasida tashkil etilgan qo'shma korxonalar O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga muvofiq 5 yil muddatga olib chiqib ketilayotgan foydadan soliq to'lashdan ozod qilinadilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston Respublikasining Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashga ishtirokini faollashtirish va respublikada xalqaro

turizmni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra tijorat banklariga tadbirkor tomonidan xususiy mehmonxonalar va mehmonxona infratuzilmasi ob'ektlari qurilgan taqdirda ularga qarz uzish muddati kamida 5 yil muddatga teng bo'lgan kreditlar taqdim etilishi tavsiya qilingan.

"O'zbekiston Respublikasida Turizm sohasini yanada qo'llab- quvvatlash va rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risi"dagi Vazirlar Mahkamasining qarorida milliy turistik xizmatlarni xalqaro turistik bozorlarga faol kiritib borishi uchun yanada imkoniyatlar yaratildi. 2012-yilda qabul qilingan ushbu qarorning asosiy mazmuni turistik yig'imlar va ularni undirish tartibiga o'zgartirishlarga bag'ishlangan. Ushbu undirilgan mablag'lar "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi jamg'armalariga tushishi va uni sarflanishiga javobgar ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

"2030 yil davrigacha Xiva shaxrining bosh rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi Vazirlar mahkamasining 2013 yil 15 maydagi qarorning qabul qilinishi viloyatimizda yangi ekskursiya yo'nalishlarining ochilishiga keng imkoniyat yaratadi. Ushbu qarorning asosiy bosh maqsadi Xiva shaxrida mavjud bo'lgan barcha turistik ob'ektlarni qayta rekonstruksiya qilish va kengaytirish, ekoturizmga katta e'tibor bergan holda atrof muhitni yaxshilash, transport infrastrukturasini rivojlantirish, elektor energetika bilan ta'minlash va boshqalar ko'zda tutilgan.

Mehmonxona xo'jaligida ekskursiya xizmati xizmatlar tasnifida alohida o'rinni egallaydi. Ekskursiya xizmatlari turistlarga xizmat ko'rsatish kompleksining ajralmas qismidir. Ekskursiya xizmati faoliyatining asosi rivojlanayotgan davlat siyosatiga xos milliy mehmondo'stlik bilan bog'liq bo'ladi.

Turistik soha shu mamlakat milliy qonunlari va qoidalari asosida boshqariladi. Bu erda xizmat ko'rsatuvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida ko'p rejali aloqalar paydo bo'ladi. Bu quyidagi faoliyatlarni: so'rov, tashviqot, tashkiliy, oldi-sotdi, sport va ba'zi hollarda operativ nazoratni o'z ichiga oladi.

Ekskursiya xizmati ko'rsatiladigan turistik xizmatning ajralmas qismidir. Ko'rsatiladigan xizmat kirish 2 ta asosiy qism va xulosadan iborat. Unda ekskursion xizmatning xarakteristikasi va ko'rsatmalari ketma-ket yoritiladi; ekskursiya klassifikatsiyasi, ekskursion xizmat ko'rsatish texnologiyasi, turistlarga ekskursion xizmat ko'rsatish sifatini boshqarish, malakali gid tarjimon, marshrut tashkil qilish va O'zbekiston bo'yicha turni tashkil etish.

1.3.1- jadval. 2009-2011 yillarda O'zbekiston Respublikasi mintaqalari bo'yicha turistik ekskursion xizmatlarning rivojlanish holati (% da)⁷

№	Mintaqalar nomi	Xizmat hajmining o'sishi					
		2009 yil		2010 yil		2011 yil	
		reja	amalda	reja	amalda	reja	amalda
	Respublika bo'yicha	123,4	130,4	127,5	110,6	117,7	127,3
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	111,3	126,7	113,5	125	105,3	205,6
2.	Andijon viloyati	119,5	128,8	120	132	116,5	105,3
3.	Buxoro viloyati	120,2	101,2	128	105	108,0	103,2
4.	Jizzax viloyati	120	106,2	122	125	104,0	71,3
5.	Qashqadaryo viloyati	124	116,3	130	130	112,0	112,3
6.	Navoiy viloyati	124	130,7	125	107	105,0	109,0
7.	Namangan viloyati	122	127,6	125	115	103,0	119,2
8.	Samarqand viloyati	125	141,8	129	103	112,0	112,0
9.	Surxondaryo viloyati	118	175,2	120	115	112,0	105,6
10.	Sirdaryo viloyati	130,5	113,1	135	2,6		
11.	Toshkent viloyati	123,5	191	125	140	108,0	122,3
12.	Farg'ona viloyati	122	123	123	103	105,0	105,3
13.	Xorazm viloyati	121,1	105,1	130	105	105,4	112,4
14.	Toshkent shahri	123,5	135,3	128	115	120,5	136,7

⁷ Muallif ishlanmalari.

1.3.2-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda turizm soxasini rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (foizda)⁸

T/r	Xizmat turlari	Xizmat hajmining o'sishi				
		2006	2007	2008	2009	2010
1	Mamlakat YaiMda xizmatlar hajmining o'sishi, %	39,0	41,7	44,3	47,0	49,5
2	Xizmatlar hammasi, o'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %	113,2	114,3	115,2	118,8	121,1
2.1	Turistik-ekskursiya xizmatlari o'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %	115,0	117,0	119,0	122,0	126,0
2.2	Mehmonxona xizmatlari, o'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %	115,0	120,0	122,0	123,0	130,0
2.3	Boshqa xizmatlar, o'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %	111,7	114,7	116,7	118,6	121,0

«O'zbekturizm» MKning 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis soxasini jadal rivojlantirish dasturi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

II-Bob. Xorazm viloyatida ekskursiya xizmatlarini tashkil qilishning asosiy yoʻnalishlari va istiqbollari.

2.1. Oʻzbekiston Respublikasida ekskursiya xizmatlarini tashkil qilishda turistik resurslarni tutgan oʻrni.

Oʻzbekistonda turizmni rivojlantirish va uni yangi bosqichlarga koʻtarish borasida, avvalo koʻxna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy boʻlgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Margʻilon kabi shaharlar muhim ahamiyatga ega. Bu shaharlarda jahon ahlini xayratga soluvchi va lol qoldiruvchi qadimgi tarixiy yodgorliklar beqiyos koʻp. Er yuzining turli mamlakatlarda istiqomat qiluvchi har bir inson bu shaharlarni oʻz koʻzlari bilan koʻrish orzusida yashaydilar. Koʻp mamlakatlarda Oʻzbekiston oʻzining ana shu shaharlari bilan mashhurdir. Oʻzbekistonning ana shu tarixiy shaharlarini bemalol «Sharqning javohirlari» deb atash mumkin.

Oʻzbekistonda mintaqaviy turizmni rivojlantirishda viloyatlardagi imkoniyatlarni oʻrganish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu imkoniyatlarni quyida koʻrib chiqamiz.

Toshkent

Islom konferentsiyasi tashkiloti (OIK) tarkibidagi muassasalardan biri – Taʼlim, Fan va madaniyat masalalari boʻyicha Xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) Toshkentni 2007 yilda Islom madaniyati poytaxti, deb eʼlon qildi.

Toshkent — Markaziy Osiyoning eng yirik shaharlaridan biri – Oʻzbekiston Respublikasining poytaxtidir. Toshkent haqidagi eng dastlabki maʼlumotlar eramizdan oddingi II asrdagi kadimgi Xitoy solnomalarida uchraydi, Xitoyda u Yuni deb nomlangan boʻlsa, Eron shohi Shopur I ning eramizdan oldingi yozuvlarida Toshkent atroflari Choch deb atalgan. Choch turli mamlakatlarning oltin, qimmatbaho toshlar, ziravorlar va ajoyib otlar eksport qilinadigan yoʻllari chorrahasida joylashgan. Hozirgi kunda Toshkent oʻzida Oʻzbekistonning tarixiy oʻtmishini eslatib turuvchi taraqqiy topgan zamonaviy

sanoat shahri bo`lib, aholisining soni turli mehmonlari bilan hisoblaganda 2 milliondan oshib ketgan.

Toshkentda ko`plab muzeylar mavjud. Masalan, Tasviriy san`at muzeyi haykallar, rasmlar va hunarmandchilik mahsulotlarining Markaziy Osiyodagi eng yirik to`plamiga ega. O`zbekiston Amaliy San`at muzeyi 30 mingdan ortiq hunarmandchilik mahsulotlari va qimmatbaho taqinchoqlarga ega.

Samarqand

Samarqand o`zining noz-ne`matlari, tabiati, boy ma`naviy merosi, betakror tarixi, olamshumul me`moriy obidalari bilan butun dunyo jamoatchiligining diqqat-e`tiborini o`ziga qaratib kelayotgan «sayqali ro`yi zamindir». So`g`diyona va Turon davlatlarining ulug`vor an`analari, dunyoviy tsivilizatsiyaning eng muxim boskichlari «er yuzining yorqin nuqtasi» bo`lgan bu shaharning tarixi va madaniyati bilan o`zviy bog`liqdir.

2.1.1-jadval.Samarqandning asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari⁹

№	Nomlanishi	Qurilgan vaqti
1	Afrosiyob	Eramizdan oldingi VIII asr
2	Mirzo Ulug`bek rasadxonasi	1428—1429 yillar
3	Shoxi Zinda arxitektura majmuasi	XV asr o`rtalari
4	Hazrati Hizr masjidi	XIX asr urtalari
5	Bibixonim masjidi	1399— 1404 yillar
6	Ulug`bek madrasasi	1417— 1420 yillar
7	Sherdor madrasasi	1619-1635 yillar
8	Tillakori madarasasi	1647- 1659-60 yillar
9	Chorsu bozori	XVIII asr oxiri
10	Ruxobod maqbarasi	1380 —yillar
11	Oksaroy maqbarasi	1470 yillar
12	Go`ri Amir maqbarasi	1404 yillar
13	Namozgox masjidi	XVII asr
14	Ishratxona maqbarasi	1464 yillar
15	Xoja Axror majmuasi	XV-XX asrlar
16	Mavzoley Chupon-Ota maqbarasi	1430-1440 yillar
17	Xoja Abdu Darun qabristoni	XV—XIX asrlar

Samarqand 2750 yillik tarixga ega. Temuriylar sulolasi davrida solingan arxitektura yodgorliklari ahamiyati jihatidan qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston,

⁹ "O`zbekturizm" MK ma'lumotlari

Yunoniston va Rimdagi arxitektura durdonalaridan sira ham qolishmaydi. Ayni paytda Samarqand viloyatida 2010 yilgacha turizmni rivojlantirishning mintaqaviy dasturi qabul qilingan bo`lib, unda asosiy taraqqiyot bosqichlari va yo`nalishlari belgilangan. Ushbu dasturda mintaqada ichki va xalqaro turizmning barcha tizimlarini tubdan qayta qurish va tashkil qilish tadbirlari belgilangan.

Buxoro

"Buxoro" so`zi sanskrit tilida «Ibodatxona», Sug`d tilida «Tangri jamoli» ma`nolarni anglatadi. Buxoro Buyuk Ipak Yo`lining yirik tijorat markazi bo`lib hisoblangan.

2.1.2-jadval. Buxoroning asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari¹⁰

№	Nomlanishi	Qurilgan vaqti
1	Ark	(XI —XX asrlar),
2	Bolo —Hovuz majmuasi	XVIII-XX asrlar
3	Ismoil Somoniy maqbarasi	IX—X asrlar
4	Chashmai-Ayub	1380 yoki 1384-85 yil
5	Abdullaxon madrasasi	1596-98 yillar
6	Modari —Xon madrasasi	1556-57 yillar
7	Masjidi Baland	XVI asr boshlari
8	Gavkushon majmuasi (masjid, minora, Madrasa)	XVI asr
9	Zayniddin Xoji xonaqosi	1555 yil
10	Poyi —Kalon majmuasi	XII —XIV asrlar
11	Labi —Xovuz majmuasi	XVI —XVII asrlar
12	Ko`kaldosh madrasasi	1568-69 yil
13	Nodir Devonbegi xonaqosi	1620 yil
14	Ulug`bek madrasasi	1417 yil
15	Abdulazizxon madrasasi	1652 yil
16	Boloxovuz masjidi	1712 yil
17	Sayfiddin Boxarziy maqbarasi	XIII asrning ikkinchi yarmi - XIV asr
18	Bayonkulixon maqbarasi	XIV asrning ikkinchi yarmi, XV yoki XVI asrlar
19	Namozgox masjidi	XII—XVI asrlar
20	Fayzobod xonaqosi	1598-99 yillar
21	Chorminor madrasasi	1807 yil
22	Buxoro Amirining Sitorai Mohi—xosa yozgi saroyi	XIX asr oxiri XX asr boshlari
23	Chor-Bakr majmuasi -Jo`ybor xo`jalari mozori	1560 – 63 yillar

¹⁰ "O`zbekturizm" MK ma`lumotlari

Buxoro — O`rta asrlarga mansub 140 dan ortiq arxitektura yodgorliklariga ega bo`lgan «Muzey —shahardir». Poyi Kalon, Qo`shmadrasa, Minorai Kalon, Ismoil Somoniy maqbarasi kabi ko`plab yodgorliklar bundan ming yillar oldin qurilgan bo`lib, hozirgi kunda xam mehmonlarni o`zlariga jalb etmokda. Buxoroning mashhurligini Al—Buxoriy, Narshaxiy, Rudakiy, Daqiqiy, Abu Ali ibn Sino va Baxouddin Naqshband kabi siymolar yanada orttirib yuborishgan. Islom dunyosida Buxoroning ismiga Sharif, ya`ni Mukaddas qo`shimchasi qo`shib ishlatilgan.

Xiva

Xiva ko`plab arxitektura yodgorliklari joylashgan Ichan — qal`ada qadimiy sharq ruxini saqlab qolgan. Xivaning arxitektura yodgorliklari asosan madrasa, masjid va minoralar, Pahlavon Mahmud maqbarasi (1835 yil), Muhammad Aminxon madrasasi (1850—1855 yillar), Ko`na Ark, Tosh Hovli, Olloqulixon karvonsaroyi (1855 yil) kabilardan iborat. Rangli bezaklar berilgan Kalta Minor (1835 yil) va 218 ta naqshli ustunga ega bo`lgan Juma masjidlarni alohida ta`kidlab o`tish mumkin. 2,5 kilometr uzunlikdagi devorga ega bo`lgan Ichanqal`a, Otadarvoza, Shimoliy, Sharqiy, Janubiy, Buxoro va Toshdarvozalariga ega. Unda 40 ta quduq bor.


Xivaning asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari¹¹:

1. Ichan-qal`a, Saidboy masjidi va madrasasi (XVIII asr boshi - XIX asr boshi),
2. Polvon Darvoza atroflari,
3. Olloqulixon madrasasi (1834-1835),
4. Qutlug`murod-inoq; madrasasi (1804-1812),
5. Olloqulixon Timi va Karvonsaroyi (XIX asr),
6. Abdullaxon madrasasi (1865),
7. Anushxon masjidi va xarami (1657),
8. Toshxovli (Olloqulixonning saroyi) (1830-1836),
9. Oqmasjid (1832-1842),

¹¹ »O`zbekturizm »MK ma`lumotlari

10. Juma masjid va minorasi (1788 -1789),
11. Said Olovuddin maqbarasi (XIV asr),
12. Muxdmmad Aminxon madrasasi (1851-1852),
13. Muhammad Aminxon madrasasi (1871),
14. Kaltaminor (1855),
15. Ko`na Ark (1868-1888),
16. To`ramurod minorasi (1888),
17. Sherniyozxon madrasasi (1718-1720),
18. Borlandi masjid (XIX asr),
19. Arabxona madrasasi (1838).


2.1.1-rasm. O'zbekiston Respublikasida mavjud mehmonxonalar to'g'risidagi ma'lumot (2012-yil)¹².



2015-yilgacha mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish dasturiga asosan quyidagilar nazarda tutilgan:

- mehmonxonalar sisatini yaxshilash – 33 dan 60 gacha;
- o'rinlar sonini ko'paytirish – 1.550 dan 2.688 gacha.

2.1.2-rasm. O'zbekiston Respublikasida mavjud mehmonxonalarlar o'rinlari to'g'risidagi ma'lumot (2012-yil)¹³



¹² "O'zbekturizm" MK ma'lumotlari

¹³ "O'zbekturizm" MK ma'lumotlari

Shahrisabz

Bog'lar va uzumzorlarga burkangan Shahrisabz shahri xunarmandchilik markazi bo'lgan. Shahrisabzdagi dastlabki turar joylarga V— VI asrlarda asos solingan bo'lsa, IX-X asrlarga kelib u yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan. Amir Temur tomonidan devor bilan o'ralganidan so'ng u madaniyat va ilm-fan shahriga aylangan.

Shahrisabzning asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari¹⁴:

1. Oksaroy (1380-1404 yillar),
2. Dorus — Saodat majmuasi (XIV asr) ,
3. Xazrati Imom masjidi (XIV asr),
4. Jahongir maqbarasi (XIV asr),
5. Dor-ut-Tilovat arxitektura majmuasi,
6. Kuk Gumbaz masjidi (1435 i.)
7. Gumbazi Saidon (XV—XVII asrlar)
8. Shamsiddin Kulol maqbarasi (XV asr)

Surxondaryo

Termizning asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari¹⁵:

1. Qirk qiz saroyi (IX-XIV asrlar),
2. Termiz hukmdorlari saroyi (XX —XII asrlar),
3. Hakim at Termiziy arxitektura majmuasi (X —XV asrlar),
4. Sulton - Saodat arxitektura majmuasi (X —XIII asrlar),
5. Qoratepa ibodatxonasi (II —IV asrlar),
6. Fayoztepa ibodatxonasi (I — III asrlar)

Farg'ona

Farg'ona shaxri Farg'ona viloyatining janubida joylashgan. Farg'ona viloyatiga quruq mo'tadil iqlim, iliq yoz, unchalik sovuq bo'lmagan qish

¹⁴ "O'zbekturizm" MK ma'lumotlari

¹⁵ "O'zbekturizm" MK ma'lumotlari

xosdir. Viloyat o`simlik dunyosi, o`rmonlar va nihoyatda manzarali tog'larga boy.

Farg'ona shaxri vodiydagi eng yirik sanoat markazlaridan biri. Shaharga yuz yildan oldin Yangi

Fargona vodiysining asosiy tarixiy va me'morchilik yodgorliklari:

1. Xudoyorxon saroyi (1870),
2. Rishtlik masjidi (1913),
3. Jome' masjidi va minorasi (1809— 1812),
4. Mulkobod masjidi (1913) ,
5. Saida Ahmadxoji madrasasi (XIX asr boshlari),
6. Chokar masjidi (1911)
7. Xuja Magiz maqbarasi (XVIII asr),
8. Mullo Dirgiz madrasasi (XX asr
9. boshlari),
10. Axsikent qadimiy shaxarchasi (eramizdan avvalgi II-I asrlar).

Mintaqaviy turizmni kelgusidagi rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi hududidagi ma'muriy chegaralarni hisobga olgan holda faoliyat ko'rsatayotgan to'rtta: Farg'ona, Toshkent, Samarqand-Buxoro, Xorazm va kelajakda rejalashtirilayotgan Jizzax, Qarshi-Termiz, O'rta-Qoraqalpoq turizm rayonlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Farg'ona turizm rayoni respublikaning Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlarini qamrab oluvchi sharqiy qismida joylashgan. Tabiiy-iqlimiy sharoitlarning turli-tumanligi ko'plab turizm ob'ektlari bilan birgalikda bu mintaqadan o'quv-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish maqsadida foydalanish imkoniyatini beradi. Arxeologik va me'morchilik yodgorliklar, sanoat komplekslari va xalq xunarmandchiligi Farg'ona hududida turizm kompleksini shakllantiruvchi asosiy turizm ob'ektlaridir. Tumanda Sux daryosi yoqasidagi Sariqurg'onda, Oydinko'l ko'lida, Andijonning janubiy-sharqida «Bog'ishamol», Karkidon suv omborida tabiiy dam olish hududlari tashkil qilingan. G'oyatda qulay tabiiy imkoniyatlar, daryolar, ko'llar va suv

omborlarining ko'pligi tog'-iqlim sharoitlari bilan birgalikda tumanni katta maydondagi yagona turizm hududiga aylantiradi.

Farg'ona tumanidan turizm maqsadlarida foydalanishga temir va avtomobil yo'llarining keng tarmog'i mavjudligi yana bir qulaylik tug'diradi va bu tumanning hamma joyida turizm va dam olish bazalarini joylashtirishga imkon beradi.

Toshkent turizm rayoni Toshkent viloyatini qamrab oladi. Bu tuman turizmning barcha turlari uchun universal imkoniyatlarga egadir. Toshkent turizm rayonining diqqatga sazovor bo'lishidagi muhim omili uning boy landshaftli tabiati, rang-barang o'simliklar va hayvonot dunyosidir. Tumandagi Tuyabug'iz va Chorvoq suv omborlarida dam olish hududlari tashkil etilgan. «Chimyon» kompleksi bazasida tog'-piyoda va tog'-changi turizmi etarli rivojlangan. Yaxshi tarmoqlangan avtomobil va temir yo'llari Toshkent turizm rayonining turizm markazlarini bir-biri bilan bog'laydi va shahar atrofidagi temir yo'l va avtomobil turizmning rivojlanishiga imkon yaratadi.

Samarqand-Buxoro turizm rayoni. Samarqand, Buxoro va qisman Navoiy viloyatlari hududini o'z ichiga oladi. Bu tumanda turizmning rivojlanishi Samarqand va Buxoroning butun dunyoga mashhur me'morchilik obidalari asoslangan. Cho'lning issiq iqlimini hisobga olgan holda yagona bosh reja asosida bunyod etilgan Navoiy shahri ham ta'limiy ahamiyatga ega. Tumanning geografik joylashuvi turizmni rivojlantirish uchun juda qulaydir. Zarafshon daryosi bo'ylab o'tkazilgan temir yo'l, keng rivojlangan shosse yo'llari tarmog'i, Zarafshon orqali unchalik baland bo'lmagan dovonlar va yaxshi suqmoqlarning mavjudligi tumandan turizm maqsadlarida foydalanishni g'oyatda osonlashtiradi.

Xorazm turizm rayoni. O'zbekistonning shimoliy-g'arbiy qismida, Amudaryoning chap qirg'og'ida joylashgan bo'lib, Xorazm viloyatining hududini egallagan. Tumandan turizm maqsadlarida foydalanish asosan Ichanqal'a me'morchilik qo'riqxonasida joylashgan Xiva tarixiy-me'morchilik yodgorliklariga asoslanadi. Ko'plab tarixiy madaniy yodgorliklari butun rayon

bo`ylab joylashgan. Xivadan janubi-sharq tomonda Sho`rko`l ko`li bor. Rayondagi taraqqiy etgan aloqa yo`llari tizimi kelajakda bu erda rayon va rayonlararo ahamiyatga ega bo`lgan turli xil turizm marshrutlarini o`rnatishga imkon beradi.

Jizzax turizm rayoni. Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hududlarini o`z ichiga oladi. Mazkur rayonning transport bilan yaxshi ta`minlanganligi va unda tabiiy resurslarining mavjudligi undan turizm maqsadlarida foydalanish istiqbollarini belgilab beradi. Bu erda shu erlik va yaqinda joylashgan turizm rayonlari aholisi uchun mo`ljallangan dam olish kunlari marshrutlarini va qisqa muddatli dam olishni tashkil qilish mumkin.

Qarshi-Termiz turizm rayoni Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududlaridan iborat. Shahrisabz, Qarshi va Termiz shaharlaridagi arxeologik va tarixiy-arxeologik yodgorliklar, Kitobdagi astronomik kenglik, Dendropark rayonida turizmni rivojlantirishning asosini tashkil qiladi. Qashqadaryo, Surxondaryo, amudaryo qirg`oqlarida, Chimqo`rg`on, Pachkamar va Janubiy Surxondaryo suv omborlarida turizm va dam olish maskanlarini yaratishning istiqbollari bor. Xisor tog` tizmasi yonbag`irlarida tog` turizmi bazalarini joylashtirish mumkin.

Kelgusida O`zbekistonning yana bir O`rta Qoraqalpoq rayonini ham o`zlashtirish mumkin. Bu hududni o`zlashtirish kommunikatsiyalar qurish uchun katta kapital mablag`larni, katta hajmdagi obodonlashtirish ishlarini talab qiladi. Bu erda Tuproqqal`a, Burgutqal`a, Gildursun qal`alari, Qiyot shahri kabi ekskursiya ob`ektlari joylashgan. Bu arxeologik yodgorliklar qadimgi Xorazm tsivilizatsiyasiga oid bo`lib, ta`limiy turizm resurslari sifatida tarixiy-me`morchilik ahamiyatiga ega bo`lgan Xorazm turizm rayoni bilan chambarchas bog`liqdir. Ushbu yodgorliklar majmuasiga borish uchun bu hududda yaxshi transport yo`llari mavjudligi ularni Xorazm rayonining turizm resurslariga kiritilishini taqozo qiladi.


Turistik xizmatlar ekportining hajmi (2012 -yil prognoz hisoboti).

- Respublika bo`yicha hajmi – 195,7 million dollar;

- Xorazm viloyatida – 2,4 million dollar;
- Samarqand viloyatida – 10,3 million dollar;
- Buxoro viloyatida – 3,9 million dollar;

va buni quyidagi rasmdan ko'rib olishimiz mumkin:

2.1.3-rasm. O'zbekiston Respublikasining tarixiy shaxarlarining 2012-yilda turistik xizmatlar eksporti hajmi (%).



2.2.3-jadval. 2007-2011 yillarda Ozbekiston Respublikasi mintaqalari bo'yicha turistik ekskursion xizmatlarning rivojlanish holati (solishtirma narxlarda)¹⁶

	Mintaqalar nomi	Xizmat hajmining o'sishi									
		2007 yil		2008 yil		2009 yil		2010 yil		2011 yil	
		Reja	amalda	reja	amalda	reja	amalda	reja	amalda	reja	amalda
	O'zbekiston	119,3	122,3	121,3	126,3	123,4	130,4	127,5	110,6	117,7	127,3

¹⁶ "O'zbekturizm" MK ma'lumotlari

	Respublikasi										
	<i>Shu jumladan:</i>										
1.	Qoraq.Res.	109,1	129,3	110,5	167,1	111,3	126,7	113,5	125	105,3	205,6
2.	Andijon	115,6	483,6	118	138,1	119,5	128,8	120	132	116,5	105,3
3.	Buxoro	119	118,7	120	127,2	120,2	101,2	128	105	108,0	103,2
4.	Jizzax	118	218,2	118,5	177,4	120	106,2	122	125	104,0	71,3
5.	Qashqadaryo	118	123,4	119,5	126	124	116,3	130	130	112,0	112,3
6.	Navoiy	122	170,5	123,5	139,1	124	130,7	125	107	105,0	109,0
7.	Namangan	115	117,7	118	-	122	127,6	125	115	103,0	119,2
9.	Surxondaryo	116	226,6	116,5	125	118	175,2	120	115	112,0	105,6
10.	Sirdaryo	110	18,3	120	-	130,5	113,1	135	2,6	-	-
11.	Toshkent	120	127	122	177,4	123,5	191	125	140	108,0	122,3
12.	Farg'ona	118	118,1	119,5	113,2	122	123	123	103	105,0	105,3
13.	Xorazm	115	126,2	120	200	121,1	105,1	130	105	105,4	112,4
8.	Samarqand	118	128	122	158,4	125	141,8	129	103	112,0	112,0
14.	Toshkent shahri	121	124,4	122	118,3	123,5	135,3	128	115	120,5	136,7

2.2. Xorazm viloyatida ekskursiya xizmatlarini tashkil qilishda turizm infratuzimasining rivojlanishi ta'sirini baholash

Xorazm viloyatida turizm sohasi respublikada eng rivojlangan viloyatlardan biridir. Ushbu viloyatda turizmni rivojlanishi o'ziga xos jixatlarga

ega bo`lib, sohani yanada rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyat va salohiyatlarga ega. Quyida bitiruv malakaviy ishi natijasida olingan ma'lumotlarga asoslanib turizm sohasi uchun yaratilgan sharoitlarni ko`rib chiqamiz.

Urganch xalqaro aeroporti. Xorijiy va mahalliy turistlarni turli rusumdagi samolyotlarda qabul qila oladi. Uchish zali 2 qavatli binodan iborat bo`lib jahon andozalariga javob bera oladigan 170 o`rindiqli kuzatish zali, barcha qulayliklarga ega va barcha xizmatlar tashkil etilgan. Birinchi qavatda 6 ta ro`yxatdan o`tkazish ustunlari, pasport nazorati xizmatlari va bojxona nazorati xizmatlari mavjud bo`lib turistlarga sifatli xizmat ko`rsatish uchun barcha qulayliklarga ega. Jumladan: 17 ta yuk tashish aravachasi, valuta ayirboshlash shahobchasi, meditsina xizmatlari ko`rsatish shahobchasi, nogironlarga mo`ljallangan hojatxona, reklama tablolari, aviareyslar jadvali, yagona axborot xizmati tizimi, aviachiptalar sotish va ma'lumot berish ustunlari mavjud.

Urganch xalqaro aeroporti faoliyatini takomilashtirish va sifatli xizmatlar ko`rsatish uchun takliflarni keltirish mumkin:

- Kutib olish zalida atigi 15 o`ringa mo`ljallangan o`rindiqlar, 2 ta chegara nazorati ustuni va deklaratsiya to`ldirish ustunlari 1ta valuta ayirboshlash shahobchasi mavjudligini aniqlandi va kutib olish zalini kengashtirish, chegara va nazorat ustunlarini 6 tagacha etkazish maqsadga muvofiqdir;

- Ichki reyslarda kutib olish zali xizmatlaridan foydalanilmaydi. Kutib olish zalini yanada kengaytirish va uchish zali infratuzilmasi darajasiga etkazish maqsadga muvofiqdir;

- Xalqaro charter sayyohlik aviareyslari tarmog`ini kengaytirish;
- Aeroport oldida, avtoulavlarni to`xtab turish joylarida aeroportgacha bo`lgan joylarda etarli darajada yoritish va bino ustidagi "Urganch xalqaro aeroporti" tablosini yoritish (reyslar amalga oshirilayotgan vaqtda);

- Urganch aeroportida charter safarlarini amalga oshirayotganida, aeroport xizmatlaridan foydalanayotgan chet el aviakompaniyalarining ijara, yoqilg'i va boshqa xizmatlari uchun to`g`ridan to`g`ri valutada qabul qilishni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Xorazm viloyatidagi temir yo`l vokzallari. Xorazm viloyatida 4 ta temir yo`l vokzali mavjud bo`lib, Urganch, Shovot, Xazarasp, Pitnak temir yo`l vokzallaridir. Urganch temir yo`l vokzalida xorijiy turistlarga xizmat ko`rsatiladi. Vokzalda quyidagi infratuzilmalar mavjud: 1 ta valuta ayirboshlash shahobchasi, dam olish xonasi, chiptalarni sotish va ma`lumot berish ustunlari, vokzalda temir yo`l poezdlarining harakatining olti oylik jadvali va yagona axborot tizimi mavjud.

Vokzalning infratuzilmasini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir va quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

- Avtoulavlar to`xtaydigan maxsus joylarni tashkil qilish;
- Vokzal ichida reklama, mamlakatimiz turistik maskanlarini aks ettiruvchi shitalar va monitorlarni o`rnatish;
- Valuta ayirboshlash shahobchasida etarli darajada naqd pul mablag`lari bilan ta`minlash va bank terminallarini o`rnatish;
 - Yuk tashish aravachalari sonini ko`paytirish;
 - Vokzal ichida internet tarmog`ini yo`lga qo`yish;
 - Urganch-Buxoro-Urganch va Samarqanda-Urganch-Samarqand yo`nalishlari bo`yicha turistik tezyurar poezdlari marshrutlarini tashkil qilish (turistik mavsumlarda);
 - Vokzal ichida sovutgich va isitgichlarni o`rnatish;
 - Vokzalda sanitariya gigiena qoidalariga rioya qilish va hojatxonalar holatini yaxshilash;

Xorazm viloyatida Davlat chegarasidan o`tish punktlari infratuzilmasi holati. Xalqaro maqomga ega Davlat chegarasidan o`tish punkti Shovot tumanidagi Shovot xalqaro bojxona posti mavjud. Bojxona nazorati

punkti soat 9:00 dan 18:00 faoliyat yuritadi. Bojxona nazorati punktida faqatgina Hiemann (eski) rusumli nazorat apparati mavjud. Kirish va chiqishni nazorat qilish uchun alohida 1 tadan bojxona punkti va 1 tadan pasport nazorati amalga oshiriladigan, kompyuterlashtirilgan terminali mavjud. Davlat chegaralarini kesib o'tish punktlari orqali kelayotgan sayyohlar uchun chegara hududlarida viza olish, transport xizmati va qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlari mavjud emas.

Davlat chegaralarini kesib o'tish punktlaridagi jahon andozalariga mos turistik xizmat ko'rsatish maqsadida quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

- Davlat chegaralarini kesib o'tish punktlarida hojatxona muammolari mavjud, turistlarni dam olish xonasini tashkil etish, ularga savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish, mamlakatimizning turistik salohiyati aks ettirilgan tashqi reklama shitlarini tashkil etish va "O'zbekistonga xush kelibsiz" yozuvlarini chegara va bojxona nazorati postidan o'tgandan so'ng yozib qo'yilishi maqsadga muvofiqdir;
- Davlat chegarasi, bojxona nazorati punktlarini zamonaviy texnik vositalari bilan jihozlansa, xizmat ko'rsatish sur'ati va sifati oshishiga olib keladi;
- Chegara punktlarida viza olishni tashkil etish lozim, o'shanda turistik oqim ijobiy tomonga o'zgaradi;
- Pullik xizmat ko'rsatuvchi transport xizmatlarini tashkil etish;
- Yuk tashish aravachalari va ularga mos ravishda yo'lakchalar tashkil etish lozim;
- Turistlarni kutib oluvchi firmalarning vakillariga bojxona nazoratigacha bo'lgan hududga ruxsatnoma berilsa maqsadga muvofiq bo'lardi;
- Turistik mavsumlarda valuta ayirboshlash shaxobchalarini tashkil etish lozim;
- Sanitariya gigiena qoidalariga rioya qilish (bio hojatxonalarni o'rnatish)

- Bojxona nazorati punktida uzluksiz elektr energiyasi va suv ta'minotini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xorazm viloyatining turistik marshrutlar yo'li va yo'l bo'yi infratuzilmalari. Xorazm viloyatida xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'li A-380 "Guzor-Nukus-Kungirod-Beyneu" 439-552km.lari Xorazm viloyati hududi hisobiga kiradi. Ushbu yo'lining 439-520km rekonstruktsiya ishlari olib borilgan, 520-553km.larini rekonstruktsiya ishlarini PK-1041 asosan tuproq ishlari bajarilib 2010 yilda rekonstruktsiya ishlari to'liq yakunlanishi mo'ljallangan. 2008 yilda 4r158 "Urganch – Xiva" avtomobil yo'lining 0-25km.larida to'liq ta'mirlash ishlari bajarilib, yo'ning ikki tomoni yoritkichlar bilan to'liq jihozlandi. 4r162 "Urganch aylanma yo'li" 0-5km.lari to'liq ta'mirlanib yangidan asfaltobeton qoplamasi yotqizildi va yo'l yoritkichlar bilan to'liq jihozlandi. 4r156 "Urganch-Xonqa-Xazorasp-Turkmaniston chegarasi" avtomobil yo'lining 41-62km.larida o'rta ta'mirlash ishlari bajarilgan, 2009 yilga 30-41km, 62-68km.larida ta'mirlash ishlari rejalashtirilgan.

Turistik marshrutlar yo'li va yo'l bo'yi infratuzilmalarini yaratish bo'yicha quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- 4r 163 avtomobil yo'lining Bog'ot tumanidan Xiva shaxrigacha bo'lgan qismini ta'mirlash, 4r156 "Urganch-Xazorasp-Amudaryo" avtomobil yo'lini Amudaryo ko'prigi orqali o'tib A-380 xalqaro yo'ligacha ta'mirlash (0-88km), shu yunalishlardagi ko'priklarni, avtobus bekatlarini hamda yo'laklarini ta'mirlash. 4r161 "Urganch-Cholish" avtoyo'lining ta'mirlash (0-13km).

- 4r 163 avtomobil yo'ning Bog'ot tumanidan Xiva shahrigacha bo'lgan qismini ta'mirlash, 4r156 "Urganch-Xazorasp-Amudaryo" avtomobil yo'lini Amudaryo ko'prigi orqali o'tib A-380 xalqaro yo'ligacha ta'mirlash (0-88km), shu yo'nalishlardagi ko'priklarni, avtobus bekatlarini hamda yo'laklarini ta'mirlash. 4r161 "Urganch-Cholish" avtoyo'lining ta'mirlash (0-13km).

- A-380 a/yo'lining 490km Sarimoy aholi punktida 1 dona, Xazorasp tumanidagi Amudaryo temir yo'l ko'prigidan o'tgan joyga 1dona, 4r158

"Urganch-Xiva" yo`lining Xiva tumani hududiga 2 dona kemping qurish. Jami 4 dona 4r 161 "Urganch -Cholish" yo`lini Urganch tumani hududi va 4r156 "Urganch-Xazorasp-Amudaryo" avtoyo`lini Bog'ot tumani hududida kemping sifatida qurilgan, keyinchalik xususiylashgan kempinglarni o`z faoliyati bo`yicha ishlashini ta'minlash.

- Yo'l buyi boshqa infratuzilmalarni (yoqilg'i quyish shaxobchalari, transport to'xtash joylarini, maishiy xizmat ko'rsatish punktlari, aloqa vositalari)ni boshqa davlat tashkilotlari va xususiy korxonalar tomonidan qurish va foydalanish.

- Turistik yo`nalishdagi yo'llarda ta'mirlash davomida tablolar, yo`nalish ko'rsatgich jihozlari, yo'l belgilari va qo'shimcha tablolarini yangidan o'rnatish;

- Buxoro-Urganch avtotrassasini jahon standartlari mos ravishda tamirlash va barcha yo'l infraturzilmasini tashkil qilish;

- Turistik marshrutlarda sayyohlarning ovqatlanishi sanitariya-gigiena talablariga javob beradigan, sifati va sertifikatiga bo'lgan oziq-ovqatlar bilan ta'minlangan ovqatlanish ob'ektlarida tashkil etish.

Viloyatdagi mehmonxona xo'jaliklari, dam olish zonalari va sihatgohlarning moddiy-texnik bazasi. Hozirgi kunda Xorazm viloyatida turizm sohasida faoliyat ko'rsatish uchun litsenziyaga ega bo'lgan mehmonxona xo'jaliklari soni 17 tani tashkil etadi. Shundan, 1 tasi turistik firma («Bek-tur»), qolgan 16 tasi mehmonxona xo'jaliklari hisoblanadi. Mazkur mehmonxonalar turistlarga tunash va ovqatlanish xizmatlarini taqdim etishadi. Viloyatning Urganch hududida 3 tasi joylashgan bo'lib, shundan «Uzolmonxotelz» qo'shma korxonasining «Xorazm-Palas» mehmonxonasi hamda «Urganch El-Tur» MChJ«Navro'z» mehmonxonalari faoliyat yuritmoqda, «Jayxun» mehmonxonasi hozirda ta'mirdan chiqarilmoqda. Xiva hududida 14 ta mehmonxona joylashgan. Ularning aksariyatiga 3 va 4 yo'lduzli maqom berilgan. Shu bilan birga hududda mehmonxona xo'jaliklarida xizmat ko'rsatish

samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflar inobatga olinsa maqsadga muvofiq bo`lardi;

- mehmonxonalarda xizmat ko`rsatuvchi xodimlarni ishga qabul qilishda ularning xorijiy tillarni bilish darajasiga e`tiborni qaratish;

- mehmonxonalarni elektr energiya, suv, gaz ta`minotlari bilan uzilish hollarining oldini olish maqsadida mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikda chora tadbirlarni yo`lga qo`yish;

- mehmonxona xo`jaliklarida turistlarning maroqli dam olishlari uchun qo`shimcha xizmatlarni yo`lga qo`yish (konsert, uchrashuv va h.k.);

- mehmonxonalarda turistlarga qulaylik yaratish maqsadida bir qator valuta almashtirish punktlarini ochish (VISA, MASTER CARD va h.k.);

- mehmonxonalarga lizing yoki imtiyozli kreditlar ajratgan holda zamonaviy transport vositalari bilan ta`minlash;


- xodimlar malakasini oshirish maqsadida Toshkent yoki Samarqand shahridagi zamonaviy mehmonxonalar bilan hamkorlikni yo`lga qo`yish;

- mehmonxonalarda kimyoviy tozalash punktlarini ochish;

- jahon andozalariga mos ravishda avtomatlashtirilgan bronlashtirish tizimini joriy etish, mehmonxonalarda turistlar uchun internet tizimidan foydalanish tizimini joriy etish;

- xorijiy sarmoyalarni jalb qilgan holda Xiva shahrida yangi zamonaviy mehmonxonalarni tashkil etish, ob`ekt to`g`risida reklama mahsulotlarini tashkil etish va h.k

2.2.1-rasm. Xorazm viloyatida mavjud mehmonxonalar soni (2006-2012 yillar)¹⁷



2.3. Xorazm viloyatida ekskursiya xizmatlarini tashkil qilish samaradorligini oshirish.

Hozirgi kunda Xorazm viloyati bo'yicha arxitektura, arxeologik va me'morial ekskursiya ob'ektlari soni 209 tani tashkil etgani holda, shundan 53 ta madaniy meros ob'ektlari Xiva «Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo'riqxonasi hududida joylashgan. Qolgan ob'ektlar viloyatning turli tumanlarida joylashgan. Bu esa viloyatda turizmni rivojlantirish potentsiali, uning imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, hozirgi kunda viloyatda joylashgan ayrim turistik ob'ektlar ta'mirtalab ahvolga kelib qolgan. Ba'zi ob'ektlar turistik yo'nalishlar dasturiga kiritilmagan. Ta'mirtalab ahvoldagi ob'ektlarni ta'mirdan chiqarib, turistik yo'nalishlar dasturiga kiritilsa viloyatga turistlar oqimni ko'paytirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu bilan qo'shimcha valuta tushimiga erishiladi, mahalliy aholi vakillarining ish bilan ta'minlanish imkoniyati yuzaga keladi. Buning uchun viloyatda turizmni rivojlantirish borasida hududda joylashgan madaniy meros ob'ektlar bo'yicha quyidagi takliflar inobatga olinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi;

¹⁷ Prezident I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda o'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv qo'llanma. - T., 2012.

2.3.1-jadval. “Bek-Tur’ MCHJ tomonidan Xiva shaxrida tashkil qilingan ekskursiya xizmatlarida qatnashgan turistklar soni (2011-yil)¹⁸

№	Firma nomi	Soni									
		Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentabr	Oktabr	Novabr	Jami
1	OOO “Shodlik Hotelz Uzbekistan”							235	249	91	575
2	OOO “Nuron Saydo”										0
3	OOO “Elite Tours International”										0
4	OOO “C.A.T.I.A”			27				50	44	26	147
5	“OOO Samarqand Travel and Tours”										0
6	SP “Cats” LTD			235	54	31	92	98		29	539
7	OOO SHAHREZADA SAM STAR TOUR			18							18
8	CHTA Orient voyaj			85	23	6	46	88	161		409
9	OOO “Marko Polo CAT”										0
10	OOO “Samarqand Renaissance”										0
11	OOO “Karavan Travel”										0
12	OOO Dolores Travel Services										0
13	OOO “NOVOTUR”					21		32			53
14	CHF “Salom”										0
15	Afsona Travel					3	18	2	25		48
16	OOO SHAHREZADA VOYAGES			31	6	2	11	33	5		88
17	“SAIRAM TOURISM”			581	307	202	451	913	611	144	3209
18	Exlover Travel komp								37		37
19	DPG-4 SEKORITE SERVIS								10		10
	Jami:	0	0	977	390	256	618	1451	1142	290	5133

¹⁸ Muallif tomonidan “Bek-Tur” MCHJ ma’lumotlari asosida tayyorlangan

«Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo`riqxonasida joylashgan Muso To`ra madrasasini ta'mirlash;

- «Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo`riqxonasida joylashgan Anushaxon hammomini joriy ta'mirlash;

- «Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo`riqxonasida joylashgan Oq maschitni ta'mirlash;

- «Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo`riqxonasida joylashgan Ota Murod Qushbegi maschiti (ta'mirtalab darajada) ta'mirlash;

- «Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo`riqxonasida joylashgan "Tugoni Turk" maqbarasini ta'mirlash;

- «Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo`riqxonasida joylashgan Amir To`ra madrasasini ta'mirlash;

- «Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo`riqxonasida joylashgan Qutlug' Murod Inoq madrasasini (ta'mirtalab darajada) ta'mirlash;

- «Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo`riqxonasida joylashgan Yusuf Yasovul boshi madrasasi qoniqarli holatda bo`lsada ta'mirlash;

- «Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo`riqxonasida joylashgan Polvon darvozasini (ta'mirtalab darajada) ta'mirlash;

- «Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo`riqxonasida joylashgan Tosh darvozasini (ta'mirtalab darajada) ta'mirlash;

- «Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo`riqxonasi da joylashgan Otojonboy madrasasi ta'mirtalab darajada;

- «Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo`riqxonasi ichkarisidagi atrof-muhitni tozalash, chiqindilarni bartaraf qilish sharoitlarini yaratish;

- «Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo`riqxonasi ichkarisini kechki yoritish uskunalari bilan ta'minlash;

- «Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo`riqxonasi hududida joylashgan xonadonlar egalari tomonidan uy atroflarini zamonaviy jihozlardan (Deraza, eshik va h.k.) foydalanilishi;

- «Dishon-Kal'a»ni asl holatda saqlab qolish;

- Xiva tumanidagi Nurullaboy madrasasi ta'mirtalab darajada, shu bilan birga sanitariya-gigiena joylarini yangidan tashkil etish;
- Xiva shaxridagi Xon dorixonasi va Xon kasalxonasi ta'mirtalab darajada, shu bilan birga sanitariya-gigiena joylarini tashkil etish;
- Xiva shaxridagi Mamat Maram madrasasi va minorasi ta'mirtalab darajada, shu bilan birga xavfsiz yo'l va yo'laklarni ta'mirlash hamda sanitariya-gigiena joylarini tashkil etish;
- Xiva shaxridagi To'rt Shovvoz majmuasi ta'mirtalab darajada, shu bilan birga xavfsiz yo'l va yo'laklarni ta'mirlash hamda sanitariya-gigiena joylarini tashkil etish;
- Xiva shaxridagi Shox Qalandar bobo majmuasi ta'mirtalab darajada, shu bilan birga xavfsiz yo'l va yo'laklarni ta'mirlash, qo'shimcha xizmat ko'rsatish turlari joriy etish hamda sanitariya-gigiena joylarini tashkil etish;
- Xiva shaxridagi Bikajon bika madrasasi ta'mirtalab darajada, shu bilan birga sanitariya-gigiena joylarini tashkil etish;
- Xiva shaxridagi Said Muxammadxon madrasasi ta'mirtalab darajada, shu bilan birga xavfsiz yo'l va yo'laklarni ta'mirlash, qo'shimcha xizmat ko'rsatish turlari joriy etish, avtotransport vositalari uchun ajratilgan maxsus to'xtash joylari hamda sanitariya-gigiena joylarini tashkil etish;
- Xiva shaxridagi Xorazmshoxlar madrasasi ta'mirtalab darajada, shu bilan birga xavfsiz yo'l va yo'laklarni zudlik bilan ta'mirlash, qo'shimcha xizmat ko'rsatish turlari joriy etish, avtotransport vositalari uchun ajratilgan maxsus to'xtash joylari hamda sanitariya-gigiena joylarini tashkil etish;
- Xiva tumanidagi Bog'ishamol-Olloqulixon bog'i ta'mirtalab darajada, shu bilan birga xavfsiz yo'l va yo'laklarni zudlik bilan ta'mirlash, qo'shimcha xizmat ko'rsatish turlari joriy etish, avtotransport vositalari uchun ajratilgan maxsus to'xtash joylari hamda sanitariya-gigiena joylarini tashkil etish;

- Xiva tumanidagi Islom xo`ja qarorgohi o`ta ta`mirtalab darajada, uni sayyohlik yo`nalishiga kiritish, qo`shimcha xizmat ko`rsatish turlari joriy etish;
- Xiva tumanidagi “Chodira” hovli ta`mirtalab darajada, uni sayyohlik yo`nalishiga kiritish, qo`shimcha xizmat ko`rsatish turlari joriy etish;
- Xiva shahridagi Xazarasp darvozasi ta`mirtalab darajada, shu bilan birga xavfsiz yo`l va yo`laklarni ta`mirlash, qo`shimcha xizmat ko`rsatish turlarini yangidan joriy etish, avtotransport vositalari uchun ajratilgan maxsus to`xtash joylari hamda sanitariya-gigiena joylarini (qoniqarsiz) tashkil etish;
- Xiva shahridagi Xudargan Devonov uyi ta`mirtalab darajada, shu bilan birga qo`shimcha xizmat ko`rsatish turlarini yangidan joriy etish hamda sanitariya-gigiena joylarini (qoniqarsiz) tashkil etish;
- Xiva shahridagi Avaz O`tar uy muzeyi ta`mirtalab darajada, shu bilan birga qo`shimcha xizmat ko`rsatish turlarini yangidan joriy etish hamda sanitariya-gigiena joylarini (qoniqarsiz) tashkil etish;
- Xiva shahridagi Shoximardon majmuasi ta`mirtalab darajada, shu bilan birga xavfsiz yo`l va yo`laklar tashkil etish, qo`shimcha xizmat ko`rsatish turlarini yangidan joriy etish, avtotransport vositalari uchun ajratilgan maxsus to`xtash joylari yaratish hamda sanitariya-gigiena joylarini (qoniqarsiz) tashkil etish;
- Xiva shahridagi Matvafo karvonboshi savdo uyi ta`mirtalab darajada, shu bilan birga xavfsiz yo`l va yo`laklar tashkil etish, qo`shimcha xizmat ko`rsatish turlarini yangidan joriy etish, avtotransport vositalari uchun ajratilgan maxsus to`xtash joylari yaratish hamda sanitariya-gigiena joylarini (qoniqarsiz) tashkil etish;

Hozirgi kungacha turistlar tashrifining ko`pchilik qismini xiva shaxri bo`ylab ekskursiyalar tashkil etadi va xiva shaxrida bugungi kunda asosan 70- 80% ekskursiya turizmini amalgam oshirishni taminlab beradi. Quyida “Bek Tour” turistik firmasining 2011 -2012-yillarda Xiva shaxriga tashrif buyurgan xorijlikturistlar sonini ko`rishimiz mumkin.

**2.3.2-jadval. “Xorezm Art Fast Food” shuba korxonasiga 2012- yilda
tashrif buyurgan turistlar soni.¹⁹**

<u>Soni</u>											
<u>№</u>	<u>Firma nomi</u>	<u>Mart</u>	<u>April</u>	<u>May</u>	<u>Iyun</u>	<u>Iyul</u>	<u>August</u>	<u>Sentyabr</u>	<u>Oktyabr</u>	<u>Novabr</u>	<u>Jami</u>
1	OOO “Shodlik Hotelz Uzbekistan”	188	679	755	205	137	129	753	187		3033
2	OOO “Nuron Saydo”								432		432
3	OOO “Elite Tours International”			22		2			21		43
4	OOO “C.A.T.I.A”		51	20	4		7	64	6		154
5	“OOO Samarqand Travel and Tours”			15	2	5	2				19
6	SP “Cats” LTD	7	103	59		61		24	59		252
7	OOO SHAHREZADA SAM STAR TOUR		39	30	2		4	40	27		147
8	CHTA Orient voyaj	67	254	80	32		82	106	80		762
9	OOO “Marko Polo CAT”		14	72	3		89	181	46	39	444
10	OOO “Samarqand Renaissance”							13	19		32
11	OOO “Karavan Travel”								10		10
12	OOO Dolores Travel Services	24	20	17				5	4		70
13	OOO “NOVOTUR”		62	34			31		16		143
14	CHF “Salom”								16		16
15	Afsona Travel		10	12		8	7				37
16	OOO SHAHEREZADA VOYAGES		101					9			110
	Jami:	286	1333	1116	248	213	351	1195	923	39	5704

Urganch shahridagi Urganch suratlar galeriyasini sayyohlik yo`nalishiga kiritish, atrofini ko`kalamzorlashtirish, bino peshtoqini ta`mirlash, shu bilan birga qo`shimcha xizmat ko`rsatish turlarini kengaytirish, avtotransport vositalari uchun ajratilgan maxsus to`xtash joylari hamda sanitariya-gigiena joylarini tashkil etish;

- Urganch tumanidagi “Olaja hovli”ni sayyohlik yo`nalishiga kiritish, shu bilan birga qo`shimcha xizmat ko`rsatish turlarini kengaytirish,

¹⁹ Muallif tomonidan “Bek-Tur” MCHJ ma`lumotlari asosida tayyorlangan

avtotransport vositalari uchun ajratilgan maxsus to'xtash joylarini tartibga keltirish;

- Xazarasp tumanidagi "Xazarasp qal'a" devorini sayyohlik yo'nalishiga kiritish, shu bilan birga qo'shimcha xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirish, avtotransport vositalari uchun ajratilgan maxsus to'xtash joylarini tartibga keltirish, bino atroflarini maishiy chiqindilardan tozalash;

- Yangiariq tumanidagi "Shayxmuxtorvali" ziyoratgohini sayyohlik yo'nalishiga kiritish, shu bilan birga qo'shimcha xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirish, joriy ta'mirlash;

- Bog'ot tumanidagi "Qal'ajiq qal'a" (Dovud qal'a) sayyohlik yo'nalishiga kiritish, shu bilan birga mavsumiy qo'shimcha xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirish, sanitariya-gigiena joylarini tashkil etish (hojatxona yo'q);

Shuningdek, milliy va tarixiy meroslarimizni kelajak avlodga etkazish, ularning asl holatini saqlab qolish, ta'mirga muhtoj ob'ektlarini qaytadan o'z holatiga keltirish maqsadida malakatimiz raxbarlari tomonidan bir qancha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan Xiva shahrida joylashgan, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan obidalardan boshqa maqsadlarda foydalanish holatlari ham ko'zga tashlanmoqda. Jumladan:

- 1 asrdan ko'proq tarixga ega bo'lgan Matniyoz Devonbegi madrasasi ichida "Orient-Star Xiva" MChJga qarashli restoran faoliyatini olib borishi;


- 1851-1853 yillarda qurilgan Muhammad Aminxon madrasasidan mehmonxona sifatida foydalanish;

- 1834-1835 yillarda qurilgan Olloqulixon madrasasidan restoran sifatida foydalanish;

- Xo'jamberdiboy madrasasi hovli tomoni yopilgan hamda undan restoran sifatida foydalanish holatlarining mavjudligi achinarli holdir. Ushbu ob'ektlardan foydalanishda xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilib, tender o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu ob'ektlarning san-uzellaridan noto'g'ri foydalanish kechirilmas oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Hozirgi kunda Xorazm viloyatida jami 24 ta gid-tarjimon sayyohlarga xizmat ko`rsatmoqda. Shundan 2 tasi oliy darajali, 6 tasi birinchi darajali va 16 tasi ikkinchi darajali hamroh tarjimonlardir. Viloyatda joylashgan ob'ektlar va muzeylarda ekskursiya olib borish huquqini beruvchi hujjatlarsiz gid-tarjimonlarning ekskursiya o'tkazishga ruxsat berilmaydi. Gid-tarjimonlar va ekskursovodlar uchun sertifikatlar «O'zbekturizm»MKsi Respublika turizm va ekskursiya xizmati Konsalting Markazi tomonidan beriladi. Malakali tajribaga va sertifikatga ega bo'lgan gid-tarjimonlar 2 yilda bir marta 7-14 kunlik maxsus kurslarda malaka oshiradi va attestatsiyadan o'tkaziladi.

2.3.2-rasm. Xorazm viloyatida turizm sohasidagi band bo'lgan aholi soni.²⁰



Turistik korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan sayyohlik yo`nalishlari va hamroh-tarjimonlar, ekskursiya olib boruvchilar uchun turistik yo`nalishlar bo`yicha beriladigan ma`lumotlar «O`zbekturizm» MKsi Respublika turizm va ekskursiya xizmati Konsalting Markazi tomonidan tayyorlanadi. Hozirgi kunda hududda turistlarga xizmat ko`rsatuvchi hamrox-tarjimonlar va ekskursiya olib boruvchilar uchun yagona mavsumiy libos (uniforma) mavjud emas.

Hududga tashrif buyuradigan xorijiy mehmonlar va sayyohlarga xizmat ko`rsatiladigan transport vositasi haydovchilarini maxsus tayyorlov kurslari mavjud emas. Mehmonxonalardagi maxsus xizmat mutaxassislari (mehmonxona ma`muri, ofitsiant, barmen, shveysar-dasyor, qavat va xonalar bekasi, farroshlar) ishlarining sifati qoniqarli darajada yo`lga qo`yilgan. Shu

²⁰ Prezident I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda o`zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko`taradigan yil bo`ladi” mavzusidagi ma`ruzasini o`rganish bo`yicha O`quv qo`llanma. - T., 2012.

bilan birga hududda ekskursiya jarayonini olib borish uchun malakali kadrlarni tayyorlashda quyidagi takliflar inobatga olinsa maqsadga muvofiq bo`lardi;

- hozirda Osiyo mamlakatlaridan kelayotgan turistlarning ko`pligini inobatga olgan holda Yapon, Italiyan, Xitoy, Koreys va Ispan tillarida ekskursiya beradigan gid-tarjimonlarning etishmasligi biroz qiyinchilik tug`dirmoqda, shu sababli hududda yana 20 ta oliy ma`lumotli gid-tarjimonga ehtiyoj mavjud;

- hududda malakali gid-tarjimonlar va ekskursovodlarni tayyorlashda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlari Oliy o`quv yurtlaridan malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda doimiy 10-16 oylik maxsus kurslar tashkil qilish zarur;

- Xorazm viloyatidagi tarixiy obidalar to`g`risidagi axborotlarni Xiva «Ma`mun» akademiyasi va Urganch Davlat Universiteti tomonidan tayyorlanishi maqsadga muvofiq. Chunki viloyatda joylashgan ob`ektlar va obidalar bo`yicha ma`lumotlar mazkur oliy o`quv yurtlarida etarli darajada mavjud;

- gid-tarjimonlar va ekskursovodlar uchun turistlar diqqatini jalb qilish maqsadida mavsumga qarab milliy hamda zamonaviy liboslarni uyg`unlashtirib yagona uniforma tayyorlash maqsadga muvofiq;

- hamroh-tarjimonlar va ekskursiya olib boruvchilarni Hukumat darajasida yagona akkreditatsiyadan o`tkazish masalasini hal etish zarur;

- Ichon-qa`lada joylashgan muzeylarda faoliyat olib boruvchi xodimlarning aksariyati 40 yoshdan oshganlar tashkil etadi. Muzeylarda faoliyat olib boruvchi xodimlarni yosh hamda xorijiy tillarni biladigan mutaxassislar bilan to`ldirish maqsadga muvofiqdir;

- hududda «O`zbekturizm» MKsi Xorazm mintaqaviy bo`limi qoshida hukumat delegatsiyalari va oliy martabali mehmonlarga ekskursiya xizmatini beradigan maxsus guruhlarni tashkil etish lozim;

- hududga tashrif buyuradigan xorijiy mehmonlar va sayyohlarga ekskursiya xizmatini ko`rsatishda malakaga ega bo`lmagan hamroh-tarjimon va

ekskursovodlar tomonidan xizmat ko'rsatilishiga yo'l quymaslik uchun Soliq idoralarini jalb qilgan holda joylarda monitoring o'tkazilishi va aniqlangan qonun buzilishlar to'g'risida tuzilgan dalolatnomalarni tegishli idoralarga taqdim qilish orqali choralar ko'rish lozim. Shuni inobatga olgan holda "O'zbekturizm" MKsi hamda Davlat Soliq qo'mitasi hamkorlikda qo'shma qaror qabul qilishsa maqsadga muvofiqdir;

- hududdagi mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan holda xorijiy mehmonlar va sayyohlarga xizmat ko'rsatiladigan transport vositalari haydovchilarini maxsus tayyorlov kurslarini tashkil qilish, har kuni marshrutga chiqadigan haydovchilarni ko'rikdan o'tkazish tartibini joriy qilish zarur;

- viloyatning turizm sohasida mehnat qilayotgan xodimlar va mutaxassislarni chet ellarda va xalqaro tashkilotlarning granti orqali o'qitish, tayyorlash va malakasini oshirish;

- xodimlarning ish samaradorligini oshirishlari uchun xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish maqsadida Toshkent shahrida joylashgan mehmonxonalarga xizmat safarlari uyushtirish orqali malakalarini oshirish maqsadga muvofiq

Viloyatda reklama ta'minoti va yodgorlik buyumlari mahsulotlarini ishlab chiqarish. Xorazm viloyatida reklama faoliyati bilan shug'ullanadigan bir qancha tashqi reklama mahsulotlarini bosmadan chiqaradigan xususiy korxonalar mavjud. Ularda asosan turistik firmalar, mehmonxonalar o'z turistik mahsulotlarini bukletlar, broshyuralar, kataloglar, xaritalar, plakatlar, kitoblar va boshqalar. Reklama mahsulotlari o'zbek, rus, ingliz, nemis, yapon, koreys va boshqa tillarda chop etilgan. Ishlab chiqarilayotgan reklama mahsulotlarida yagona milliy «UZBEKISTAN» turistik brendidan foydalanish sust olib borilmoqda.

Xorazm viloyatida xalq hunarmandchili keng yo'lga qo'yilgan jumladan, «Xunarmand» uyushmasi Xorazm viloyat bo'limi tomonidan. Xorazmda 11 ta «USTO-ShOGIRD» maktablari tashkil etilib, 47 ta shogirdlar mavjud.

Mahalliy mahsulotlardan: gujum, terak, sada, tut, turangi daraxtlaridan zamonaviy mebellar ishlab chiqarilmoqda.

Viloyatda sayyohlarga meditsina xizmati ko`rsatilishi va xavfsizlikning ta'minlanishi. Sayyohlarga meditsina xizmatlarini tashkil qilish va ularning xavfsizligini ta'minlash eng muhim masalalardan biridir. Turistik ob'ektlarda asosan Xiva shahridagi "Ichan Qal'a" davlat muzey qo`riqxonasi ichida va "Dishan Qal'a" atrofida meditsina punktlarini tashkil etish va chet tillarini biladigan meditsina xodimlari jalb qilinsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Undan tashqari xalqaro magistral yo`llari bo`yida har 100 km.da talabga javob beradigan meditsina punktlarini tashkil qilish lozim. Turistik marshrutlarda sayyohlarni transport vositalarida xavfsizliklarini ta'minlash maqsadida ichki ishlar vazirligi bilan kelishilgan holda hamkorlikda ishlar olib borilgan. Turistik xizmat ko`rsatish ob'ektlarida yong'in xavfsizligini kuchaytirish, avtotransport vositalarida birinchi yordam ko`rsatishni uchun kerakli dori darmonlarni va jihozlarni ta'minlash lozim.

Viloyatda sayyohatchilarga xizmat ko`rsatuvchi transport vositalarini holati. Viloyatda sayyohatchilarga transport vositalarida xizmat ko`rsatadigan transport vositalari "Xorazm Palas" mehmonxonasi balansidagi Xunday Aerospeys rusumli 1ta 45 o`rinli EURO-1 standartiga javob beradigan avtobus, "Asia-Xiva" mehmonxonasi tasarrufida Daewoo rusumli 1ta 40 o`rinli standartlarga javob beradigan avtobus mavjud. Ushbu avtobuslar holati talablarga javob beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Bitiruv malakaviy ishini yozish vaqtida mamlakatimizda ekskursiya xizmatlarini tashkil qilish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha bir quyidagilar hulosasi qilinadi:

- mamlakatimizdagi mavjud tarixiy obidalardan ekskursiya xizmati ko'rsatishda keng foydalanish;
- xalqaro turistlarga ekskursiya xizmatini ko'rsatishda turistik imkoniyatlarni hisob chiqish va imkoniyat darajasining ulardan eng yuqori darajada foydalanish;
- ko'plab sayoxatlarga chiqadigan Yevropa mamlakatlarda bo'ladigan turistik yarmarkalarda surunkali ishtirok etishni ta'minlash;
- ichki turistik bozorda uzaro raqobatni yanada kuchaytirish, turistik firmalarga davlat tomonidan berilayotgan imkoniyatlarni qayta ko'rib chiqish;
- ekskursiyani tashkil etishda madaniy meros etnografiya, urf-odatlar va an'analardan unumli foydalanish;
- turizmda ekskursantlarni arxitektura va xaykaltaroshlik bilan tanishtirishning samarali yo'llarini ishlab chikish;
- zamonaviy turistik komplekslarni bunyod etishda chet el sarmoyasini jalb etishga erishish;
- jahon bozorida talab katta bo'lgan xalqaro turistik yo'nalishlarni yo'lga qo'yishda va ishlab chiqishda qatnashish (Buyuk ipak yuli imkoniyatlaridan keng foydalanish);
- milliy urf odatlar va tarixiy arxitektura yodgorliklarini asl ko'rinishda saqlab qolishga erishish va ekskursiya davomida turistlarga uning yaratilishi tarixi haqida kengroq tushuncha berish;
- turizm soxasi uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirish (gid tarjimonlar va tarixni yaxshi biladigan mutaxassislarni tayyorlash);

Bitiruv malakaviy ishini yozish paytida Xorazm viloyatida yangi yoʻnalishdagi ekskursiya xizmatlarini tashkil qilish boʻyicha quyidagilar tavsiya qilinadi:

- Urganch tumani hududida joylashgan “Ulli hovli” qal’asining qolgan qismini qayta ta’mirlash;
- Bog’ot tumanidagi “Qalajiq qal’a” tarixiy–madaniy obidasini qayta ta’mirlash va ular negizida yangi sayyohlik markazlarini tashkil etish va turistik xizmat ko’rsatishni o’z ichiga olgan infratuzilmani yaratishga erishish;
- Xiva shaxri atrofida turistlarni bosh vaqtlarini samarali oʻtkazish uchun ko’ngilochar joylarni tashkil qilish;
- Xiva shaxri atrofida agroturizm va ekoturizmni rivojlantirish orqali turistlarning tur kunlarini uzaytirish;
- Urganch va Xiva shaxarlari atroflarida milliy taomlar, qovun sayli va milliy kiyimlar festivallarini oʻtkazish.
- Yangi yuristik mahsulotlar va marshurtlar ustida ihlash;
- Mavjud ko’llar atrofida yangi 5 ta turistik majmualarni yaratish yani 3 tasi Xiva shaxrida, bittadan Bog’ot va Xazarasp rayonlarida qurish;
- “Gouko’l” atrofida yangi akva-park qurish;
- Xiva markazida va “Gouko’l” atrofida 2 ta tomosha bog’lar, turli xil ko’ngil ochar zamonaviy attraksion binolarni qurish;
- Xiva markazida va “Gouko’l” atrofida 2 ta bouling markazlarini qurish;
- Urganch shaxrida Xorazm viloyatining boy madaniy - tarixiy merosini, turmush tarzini an’alarini aks ettiruvchi 4ta muzey qurish va shu bilan birga X. Devonov nomiga yangi mutimediya muzeyini yaratish;

- Mavjud ko'llar atrofida yangi 5 ta turistik majmualarni yaratish yani 3 tasi Xiva shaxrida, bittadan Bog'ot va Xazarasp rayonlarida qurish;
- "Gouko'l" atrofida yangi akva-park qurish;
- Xiva markazida va "Gouko'l" atrofida 2 ta tomosha bog'lar, turli xil ko'ngil ochar zamonaviy attraksion binolarni qurish;
- Urganch shaxrida Xorazm viloyatining boy madaniy - tarixiy merosini, turmush tarzini an'alarini aks ettiruvchi 4ta muzey qurish va shu bilan birga X. Devonov nomiga yangi mutimediya muzeyini yaratish;
- Tarixiy – madaniy obyekt merosining noqulay joylashganligi va bukamchiliklarni yaxshilash;
- Infrastrukturada turistlar uchun bo'sh vaqt va ko'ngil ochar dasturlarni ko'paytirish;

Umuman olganda turizmning rivojlanishi orqali viloyatimizga tashrif buyuradigan turistlar sonining oshishiga, turistlarni viloyatimiz tarixi va madaniyati bilan yaqindan tanishishiga, shuningdek jahonda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz kechayotgan bir paytda, viloyatning qishloq joylaridagi yoshlarini ish bilan ta'minlashga, hamda davlatimizga qo'shimcha valyuta kirib kelishiga erishishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni. // «Xalq so‘zi» gazetasi, 1999-yil 14-sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infrastrukturasi barpo qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // «Xalq so‘zi» gazetasi, 1995-yil 4-iyun.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va vatan qolsin. 2-tom. - T.: O‘zbekiston, 1996, - 380 b.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lida 4-tom. - T.: O‘zbekiston, 1996, - 349 b.
5. Prezident I.A.Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda o‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi” mavzusidagi ma'ruzasini o‘rganish bo‘yicha O‘quv qo‘llanma. - T., 2012. - 126 b.
6. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston, 2013.
7. Amriddinova. Ekskursiya ishini tashkil etish.SamISI. 2009
8. Bogolyubov V.S., Orlovskaya V.P. Ekonomika turizma. - M., 2005. – 151 b.
9. Durovich A.P. Marketing v turizme. - Minsk: OOO “Novoe znanie”, 2001. – 489 s.
10. Dovjenko G. “Ekskursionnoye delo” Moskva 2006g

11. Kwartalnov V.A., Teoriya i praktika turizma. - M.: Finansi i statistika, 2003.
12. Komilova F.Q., Xalqaro turizm bozori. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2006 y. -191 b.
13. Li D. M, Talipov M.A teksti lektsi po predmetu "Ekskursovedeniye". Toshkent 2003g. Tashkentski Gosudartstvenniy universitet.
14. Nazarova K., Kamilova F. O'zbekistonda turizm imkoniyatlarini kengaytirish. // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, №9, 2000. - 48-49 b.
15. Pardaev M.Q., Atabaev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. Ma'ruzalar kursi. - SamISI, 2006.
16. Soliev A.S., Usmonov M.R. Turizm geografiyasi. -Samarqand: SamDU, 2005. -131 b.
17. Tashmurodov T. Xalqaro turizm. -T.: Turon – Iqbol, 2007.- 320 b.
18. Tuxliev I.S. Turizm asoslari: Uslubiy qo'llanma – Samarkand: SamISI, 2008- 226 b.
19. Tuxliev N.T., Abdullaeva T. Natsionalnie modeli razvitiya turizma. –T.: GNI «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2006.
20. Qudratov G'.X., Tuxliev I.S. Turizm iqtisodiyoti. – Samarqand, SamISI, 2007.
21. Tariqulov M. O, Nabiyeva S. A "Ekskursiyashunoslik" fani bo'yicha ta'lim texnalaogiyasi. Toshkent 2006 y. Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti.
22. I.S.Tuxliev, M.Q.Pardaev. Turizm da xizmat ko`rsatishni rivojlantirish aholi bandligini oshirish manbasi. - T., 2008. -18 b.
23. X.M.Mamatkulov. Turizm va servisga oid izohli lug'at. -Samarkand, 2010. - 201 b.

- 24.R.Xayitboev, A.Sattarov. Turistik marshrutlarni ishlab chiqish texnologiyasi. -Samarqand, 2009. – 4 b.
- 25.B.A.Erkaev, G.I.Karimova. Bozor iqtisodiyoti. Izohli lug‘at. -T.: Sharq, 1997 -113 b..
- 26.Sh.N.Zaynutdinov, R.I.Nurimbetov. Personalni boshqarish. –T.: Yangiyo‘l, 2007. -279 b.
- 27.D.Xudayberganov. Mintaqada xizmatlar bozorini rivojlantirish yo‘nalishlari va xususiyatlari. Uslubiy qo‘llanma. -Urganch, 2011 y.
- 28.Xayitboev R., Amriddinova R. Turizm marketing tadqiqotlari. - Samarqand, 2009.
- 29.“Turizmni rivojlantirishda xalqaro ilg‘or tajriba va uni O‘zbekistonda qo‘llash muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Samarqand, 2011.
- 30.Mirzaev Q.J., Musaev B.Sh. Mehmonxona xo‘jaligi menejmenti. - Samarqand, 2010.
- 31.Usmonova Z.I. Turizm marketingi. - Samarqand, 2009.
- 32.M.Q.Pardaev, R.Atabaev, B.R.Pardaev. Turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari. –T., 2007.
- 33.Xayitboev R., Pardaev O. Turizmning menejmenti. - Samarqand, 2010.
- 34.www.sies.uz
- 35.www.tdiu.uz
- 36.www.world-tourism.org - Xalqaro turistik tashkilot
37. www.lex.uz
- 38.www.ziyonet.uz
- 39.www.bektour.uz